

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

XAVFSIZLIK RAQAMLARDA

- «Xavfsiz va sog'lom yurt» oyligining ikkinchi bosqichi doirasida o'tgan 20 kun davomida 51 390 ta tezkor qidiruv tadbirlari o'tkazilib, 2897 ta jinoyat aniqlandi.
- Avval sodir etilgan 2850 ta jinoyat fosh etildi. Sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan 949 nafar qidiruvdagi shaxs ushlandi va bedarak yo'qolgan 698 nafar fuqaro topildi.
- Narkojinoyatlarni bartaraf etish, ularning noqonuiy aylanmasi va yoshlar orasida tarqalishiga, shu bilan birga narkolaboratoriya faoliyatiga chek qo'yish bo'yicha o'tkazilgan jami 1872 ta tezkor tadbir davomida 150 kg giyohvandlik vositalari, 48 ming dona nazorat ostidagi psixotrop dorilar olindi.
- Ekin maydonlari va tomorqalardan 31 000 tup giyohvandlik o'simliklari topilib, yo'q qilindi. 89 nafar giyohvandlik vositalarini tarqatayotgan zakladkachi ushlanib, ular tomonidan chizilgan 354 ta narkografiti o'chirildi.
- Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish yo'nalishida 2105 ta jinoiy holat aniqlanib, jinoiy guruh va shaxslardan 233 dona ov quroli, 10 dona qo'lbola usulda yasalgan va 262 dona pnevmatik qurol hamda 5 635 dona o'q dorilar olindi.
- Qo'riqlash departamenti tomonidan oylik davomida 9 904 ta xonadon va 5 549 ta savdo va boshqa turdagi obyektlar texnik qo'riqlovga olindi. 40 508 ta holatda tashvish xabarlar bo'yicha tezkor harakatlanuvchi guruhlar tomonidan zaruri choralar qo'llanildi va obyektlar xavfsizligi ta'minlandi.
- Ko'cha va jamoat joylari, yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash 275 ta patrullik va 226 ta hamkor yo'nalishi bilan qamrab olindi. Tadbirlar doirasida 11 825 ta tig'li buyum olib yurish bilan bog'liq holat aniqlanib, og'ir oqibatli jinoyat va huquqbuzarliklarning oldi olindi.



NURAFSHONDA YANGI LOYIHALARGA START BERILDI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 22-iyul kuni Toshkent viloyatining ma'muriy markazi — Nurafshon shahriga tashrif buyurib, hududda amalga oshirilayotgan yirik infratuzilma va ijtimoiy loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari «Cyber University» faoliyatini ko'zdan kechirib, Kelajak texnologiyalari markazi qurilishiga start berdi, yangi ijtimoiy himoya majmuasi faoliyati bilan tanishdi hamda «Toshkent — Nurafshon yo'nalishida barpo etilgan zamonaviy yo'l o'tkazgichni ko'zdan kechirdi. Shuningdek, Nurafshondagi «Yangi O'zbekiston» bog'ida Toshkent viloyati jamoatchiligi vakillari bilan uchrashdi.

Tashrif davomida mamlakat transport tizimi uchun strategik ahamiyatga ega «Toshkent —

Samarqand» zamonaviy avtomagistrali qurilishiga start berildi. Qiymati 2,2 milliard AQSH dollari bo'lgan loyiha doirasida uzunligi 282 kilometr bo'lgan, olti tasmali yuqori toifadagi tezyurar avtomobil yo'li barpo etiladi.

Yangi magistral Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarining 13 ta tumani orqali o'tib, 92 ta ko'pri, 28 ta yo'l o'tkazgich hamda 60 ta yerosti o'tish yo'lagini o'z ichiga oladi. Loyiha amalga oshirilgach, poytaxtdan Samarqandga borish vaqti besh soatdan ikki yarim soatgacha qisqaradi. Avtomagistral sutkasiga 60–80 mingta transport vositasiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'lib, yuk tashish xarajatlarini 19–24 foizga kamaytirishi kutilmoqda.

HAFTA XABARLARI

DAVLATNING ENG NUFUZLI STIPENDIYALARI UCHUN SARALASH BOSHLANMOQDA

2026–2027-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan eng iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish maqsadida 776 ta davlat stipendiyasi ajratildi. Tasdiqlangan kvotalarga ko'ra, 194 ta o'rin Islom Karimov, 187 ta Prezident, 175 ta esa Navoiy nomidagi mukofotlarga to'g'ri keladi. Qolgan o'rinlar Bobur, Imom al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Abdulla Avloniy, Ulug'bek, To'lepbergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov va Pahlavon Mahmud nomidagi stipendiyalar hisobiga taqsimlangan. Nomzodlar respublika oliygohlarida tahsil olayotgan 335 mingdan ziyod yuqori bosqich talabalari orasidan saralab olinadi. Tanlov jarayonida akademik o'zlashtirish, ilmiy izlanishlar, olimpiada va tanlovlardagi natijalar, shuningdek, ijtimoiy hamda ijodiy faollik asosiy mezon sifatida inobatga olinadi.

E'TIROF ETILGAN INSPEKTOR



Mahallada tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda aholi muammolariga o'z vaqtida yechim topish profilaktika inspektorlarining eng muhim vazifalaridandir. Bu vazifalarni vijdonan ado etayotgan xodimlardan biri – Termiz shahar IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi profilaktika inspektori, kapitan Odil JABBOROVdir.

Odil Jabborov xizmat faoliyatini 2020-yilda boshlagan. O'tgan davrda u «Bog'zor», «Tuproq qo'rg'on», «Gulira'no» va «Mehrobod» mahallalarida xizmat qilib, boy tajriba orttirdi. Faoliyatidagi eng mas'uliyatli bosqich esa Termiz shahrining «Guliston» mahallasiga profilaktika inspektori etib tayinlangach boshlandi. Chunki ushbu hudud so'nggi uch yil davomida jinoyatchilik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan «qizil» toifada qolayotgan edi.

Yangi vazifaga kirishgan profilaktika inspektori, eng avvalo, mahalladagi vaziyatni chuqur o'rgandi. U aholini ijtimoiy holati va xavf darajasiga qarab uch toifaga – «qizil», «sariq» va «yashil» guruhlariga ajratdi. Asosiy e'tibor xavf darajasi yuqori bo'lgan 93 ta xonadonga qaratildi. Har bir xonadonning muammosi alohida o'rganilib, mahalla mutasaddilari va soha mas'ullari bilan hamkorlikda manzilli ishlar tashkil etildi: fuqarolar bandligini ta'minlash, ehtiyojmand oilalarga ko'maklashish, nizoli oilalar bilan ishlash, yoshlar va ayollarning muammolarini hal etish bo'yicha aniq choralar ko'rildi. Xususan, bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari orqali 84 nafar fuqaro doimiy ishga joylashtirildi, yana 16 kishi uy-joy mulkdorlari shirkatlariga ishga qabul qilindi. Bundan tashqari, profilaktika inspektorining sa'y-harakati bilan 6 ta nizoli oila yarashtirildi.

Jamoat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida Termiz shahar hokimligi tomonidan mahalla hududiga o'rnatilgan 200 dan ortiq videokuzatuv kameralari profilaktika inspektori xonasiga integratsiya qilindi. Bu vaziyatni doimiy monitoring qilish va tezkor munosabat bildirish imkonini berdi.

Amalga oshirilgan tizimli ishlar yarim yilda o'z samarasini berdi: uch yildan beri «qizil» toifada bo'lgan «Guliston» mahallasi «yashil» hududga aylandi.

Odil Jabborovning fidokorona xizmati Prezidentimiz tomonidan yuqori baholandi. Davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida uning faoliyati alohida e'tirof etilib, muddatidan oldin «kapitan» maxsus unvoni berildi. Ushbu unvon Surxondaryo viloyati hokimi tomonidan tantanali ravishda topshirildi. Bu nafaqat bir xodimning mehnatiga berilgan baho, balki mahallalarda xalq manfaati yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan profilaktika inspektorlari faoliyatiga bo'lgan yuksak e'tiborning yana bir ifodasi bo'ldi.

Qahramonimiz ayni paytda IIV Akademiya-si sirtqi bo'limida tahsil olmoqda, kurash sport turi bilan shug'ullanib, sog'lom turmush tarzini targ'ib etmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

TIZIM FAOLIYATIDAN LAVHALAR



Mahallalarda xavfsizlik va obodlikni ta'minlash bosh mezon: Ichki ishlar vazirligida o'tkazilgan navbatdagi yig'ilish, muhim vazifalar ijrosiga qaratildi



Samarqand viloyatida «Xavfsiz va sog'lom yurt» oyligi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi



Tizimli va hamkorlikdagi keng ko'lamlı tezkor-profilaktik tadbirlar: «Xavfsiz va sog'lom yurt» oyligining 20 kunlik natijalari.

KADR ORTIDAGI MAS'ULIYAT

Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi Qo'riqlash xizmati Axborot guruhi bosh mutaxassisi, kapitan Nodirbek Boltaboyevning «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi bir kunlik faollik yoki tasodifiy muvaffaqiyat natijasi emas. Bu e'tirof ortida Qo'riqlash xizmati faoliyatini muntazam yoritish, xodimlarning fidokorona mehnatini keng jamoatchilikka tanitish, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va tizimning axborot maydonidagi nufuzini oshirishga qaratilgan izchil faoliyat turibdi.

Axborot xizmati xodimining ish vaqti aniq soatlar bilan chegaralanmaydi. Xizmat tadbiri tong saharcha boshlanishi, tun yarmigacha davom etishi yoki kutilmagan vaziyat sabab rejalar bir zumda o'zgarishi mumkin. Bunday paytda axborot mutaxassisi voqea joyiga tez yetib borishi, vaziyatni to'g'ri baholashi va yuzaga kelgan jarayonni xolis yoritishi kerak.

Nodirbek Boltaboyev o'z faoliyati davomida ana shu yuksak mas'uliyatni teran his etib kelmoqda. U Qo'riqlash xizmati xodimlarining kundalik faoliyatini



shunchaki quruq va rasmiy hisobot tarzida taqdim etmaydi, balki buning el osoyishtaligi hamda insonlar xavfsizligi bilan bog'liq zahmatli mehnat ekanini xolisona ko'rsatishga intiladi. U qo'riqlovdagi obyektlarda olib borilayotgan nazorat ishlari, xodimlarning tungi navbatchiliklari, o'quv va saf mashg'ulotlari, yosh xodimlarning xizmatga moslashish jarayonlari, profilaktik uchrashuvlar hamda kiberjinoyatlardan ogohlantirishga qaratilgan tadbirlarni muntazam yoritib keladi.

Kapitan N. Boltaboyevning sohadagi hamda jamiyat hayotidagi ko'p yillik samarali xizmatlari munosib baholanib, «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni bilan mukofotlandi.

Ushbu ko'krak nishoni u bosib o'tgan yo'l yakuni emas, aksincha, bildirilgan ishonchni oqlash, kasbiy mahoratini yanada oshirish va fidoyi xodimlar faoliyatini bundan keyin ham haqqoniy yoritish yo'lidagi yangi mas'uliyat ramzidir.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



Mahalla tinch — yurt tinch

BUNYODKORLIK VA OSOYISHTALIK UYG'UN MASKAN

Yangi O'zbekistonning bunyodkorlik yo'li, eng avvalo, mahallalardagi hayot nafasi bilan o'lchanadi. Chunki inson qadri ulug'langan, tinchlik va osoyishtalik hukm surgan, ertangi kunga ishonch mustahkam bo'lgan maskangina taraqqiyotning haqiqiy manziliga aylanadi.



Bekobod shahridagi «Do'stlik» mahallasi bugun ana shunday ezgu o'zgarishlar yuz bergan, bunyodkorlik va xavfsizlik uyg'unlashgan, Yangi O'zbekistonning yorqin qiyofasini namoyon etayotgan maskanlardan biri. Joriy yil 13-iyul kuni davlatimiz rahbari Bekobod shahriga tashrifi davomida mazkur mahallada amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishgani bu yerdagi yangilanishlar jara-yoniga berilgan yuksak e'tibor ifodasi bo'ldi.

Bir paytlar qarovsiz holda bo'lgan bu hudud bugun keng va ravon ko'chalari, so'lim xiyobonlari, zamonaviy bolalar maydonchalari, tadbirkorlik obyektlari hamda shinam turarjoylari bilan atrofdagilarni o'ziga rom etmoqda. Ammo bu o'zgarishlarning eng muhim jihati insonlar qalbida — fuqarolarning ertangi kunga bo'lgan ishonchi, yuzidagi tabassumi va hayotidan mamnunligida namoyon.

1994-yilda tashkil etilgan «Do'stlik» mahallasi bugungi kunda 28,4 gektar maydonni egallaydi. Bu yerda 4 ming 300 dan ziyod aholi istiqomat qiladi. Mahallada 45 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritadi. Ta'lim muassasalari va xizmat ko'rsatish tarmoqlari aholining farovon turmush kechirishi uchun xizmat qilmoqda.

Agar mahallada osoyishtalik bo'lmasa, bunyodkorlikning ham, iqtisodiy rivojlanishning ham samarasi yo'q. Shu bois «Do'stlik» mahallasida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda Toshkent viloyati IIBB Uchinchi mintaqaviy hudud Bekobod shahar IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi profilaktika inspektori, leytenant Abbos Mullajanovning xizmati alohida e'tirofga loyiq. U 2025-yil O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasini tamomlagandan buyon, ushbu mahallada faoliyat olib bormoqda. Yosh bo'lishiga qaramay, mas'uliyatligi, qat'iyati, tashabbuskorligi, fuqarolar bilan ishlash madaniyati va kasbiga sadoqati tufayli qisqa vaqt ichida mahalla ahlining ishonchini qozonishga muvaffaq bo'ldi.

Mahallada «ijtimoiy profilaktika» tizimi izchil yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizim doirasida alohida nazoratni talab etuvchi 90 nafardan ortiq fuqaro bilan manzilli ishlar tashkil qilingan. Jumladan, probatsiya nazoratida turgan, profilaktik hisobga olingan, ilgari sudlangan hamda spirtli ichimlikka ruju qo'ygan fuqarolar bilan muntazam profilaktik suhbatlar, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Hududga o'rnatilgan 42 ta kuzatuv kameralari esa jamoat tartibini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish va tezkor choralar ko'rishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

«Do'stlik» mahallasi misolida aytishimiz mumkinki, endilikda nafaqat shahar markazlari, balki uzoq yillar e'tibordan chetda qolgan eng chekka hududlar ham zamonaviy qiyofa kasb etib, aholi uchun qulay yashash sharoitiga ega fayzli maskanlarga aylanmoqda. Bularning barchasi, avvalo, inson qadrini ulug'lash, xalq turmush farovonligini oshirish, har bir xonadonga ezgulik va ishonch olib kirish yo'lida amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning yorqin namunasidir.

Dilrabo ABDUHAMIDOVA,
mutaxassis-muxbir, katta leytenant.

Toshkent viloyati.

**«Komplayens
va ma'naviy
madaniyat» oyligi**

UMR ZAVOL BO'LMASIN!

Ichki ishlar organi xodimi, eng avvalo, el-yurt xizmatchisi. U halollikda ham barchaga namuna bo'lishi, xizmat vazifasini sidqidildan bajarishi lozim. «Komplayens va ma'naviy madaniyat» oyligi doirasida Sirdaryo viloyatining Guliston, Boyovut tumanlari va Shirin shahar IIBlarida bo'lib o'tgan yig'ilishlarda aynan mana shu fikr yangradi.

Tadbirlarda xodimlardan tashqari tizimda fidoyilik bilan xizmat qilgan faxriylar, ota-onalar ham qatnashdi.

– Shaxsiy tarkib o'rtasida xizmat intizomi, qonuniylik va kasbiy etika qoidalariga rioya etishni ta'minlashga qaratilgan ushbu tadbir juda qizg'in muhokamalarga boy bo'ldi, – deydi Shirin shahar IIB boshlig'ining o'rinbosari, kapitan Ahror Usmonov.

– So'zga chiqqan faxriylar, ota-onalar korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda ekanliklarini namoyish etishdi.

Boyovutdagi tadbirda namoyish etilgan «Zavol bo'lgan umr» hujjatli filmi barchada katta taassurot qoldirdi. Unda xatoga yo'l qo'yish qanday oqibatga olib kelishiga oid ta'sirchan lavhalar muhokamasi, faxriylarning hayotiy saboqlariga ulanib ketdi.

– Har bir xodim uchun zurrur bo'lgan uchta xususiyat bor, – deydi Boyovut tumanida yashovchi, faxriy Hojiboy Yakubov. – Xizmat intizomi, sodiqlik, yuksak



ma'naviyat. Mana shu fazilatlar mavjud xodim hech qachon pand yemaydi.

Shirin shahrida istiqomat qiluvchi Ne'mat Do'stmurodov farzandlariga halollikni, mehnatni, sadoqatni targ'ib qiladi. Uning o'g'li Komil Do'stmurodov ichki ishlar xodimi. U bir necha yillar davomida Boyovut tumani IIBda profilaktika inspektori vazifasida ishladi. O'zini har tomonlama ko'rsatdi. Yaqinda esa xizmat vazifasiga bo'lgan munosabati sababli uni Xovos tumani IIB HPB boshlig'i vazifasiga o'tkazishdi. Uning oilasidagi ma'naviy muhit namuna sifatida ko'rsatildi.

Guliston tumani IIBda o'tgan tadbir ham ota-onalar va ichki ishlar xodimlari uchun muloqot platformasi vazifasini bajarib berdi. Bunda yoshi katta insonlarning hayotiy tajribasi, o'g'itlari barchada katta tassurot qoldirdi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



UCHTEPADA AMALIY ISHLAR

Toshkent shahrida o'tkazilayotgan «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirining ikkinchi bosqichi doirasida Uchtepa tumani IIOFMB Migratsiya va personallash-tirish bo'limi xodimlari tomonidan hududda joylashgan sanoat zonalarida, korxona va tashkilotlarda hamda boshqa obyektlarida pasport-viza qoidalariga rioya etilishi tekshirilib, fuqarolarni turar-joylari bo'yicha vaqtincha ro'yxatga olish yuzasidan zarur choralar ko'rilmogda.



Mazkur tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad tumanda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, mahallalarda xavfsiz muhitni mustahkamlash, aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini yanada oshirish hamda har bir fuqaro uchun osoyishta va xavfsiz yashash sharoitini ta'minlashdan iborat.

Gulzoda PULATOVA,
podpolkovnik.

OSON BOYLIK ILINJIDA

Toshkent viloyatining Ohangaron tumani va Yangiyo'l shahrida huquq-tartibot organlari tomonidan «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirlari doirasida o'tkazilgan tezkor amaliyotlarda og'u tarqatishga bo'lgan navbatdagi urinishlar aniqlandi.



Ohangaron tumani hududi-da joylashgan «Chinor» YPX maskanida vodiy viloyatidan poytaxtga harakatlanib ke-lyotgan «Matiz» rusumli avto-mashina to'xtatildi. Haydovchi Shomurod Jo'rayev (ism-sharif-lar o'zgartirildi) o'zini haddan tashqari xotirjam ko'rsatishga urindi. Hatto xodimlarga qa-rata: «Mashinani xohlagancha

tekshiringlar, hech narsa yo'q», dedi. Biroq uning shubhali xat-ti-harakatlari tajribali xodimlar nazaridan chetda qolmadi. Avtomobil belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilganda, haydovchining siri fosh bo'ldi. Mashinaning pol qismi ostidan qora polietilen paketga o'ral-gan, o'tkir hidli, to'q yashil rangli modda topildi.

Keyinchalik ushbu zahri qotil gashish giyohvandlik vositasi ekani ma'lum bo'ldi.

Yangiyo'l shahrining «Yangi-hayot» MFY hududidagi xo-nadonlardan biri ko'zdan kechirilganda esa, xonadon egasi, 53 yoshli fuqaro Bahrom G'ofurov o'z hovlisidagi is-siqxonadan mutlaqo boshqa maqsadda foydalanib kelgani aniqlandi. Issiqxonada pomi-dor yoki bodring emas, balki tarkibida giyohvandlik modda-lari bo'lgan 22 tup taqiqlangan o'simlik alohida parvarish-lab kelinayotgani oydinlashdi. Taqiqlangan ekinlar xolislar ishtirokida bayonnoma asosida hujjatlashtirilib, ashyoviy dalil sifatida olindi.

Yuqoridagi har ikkala holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Abror POYONOV,
katta serjant.

Toshkent viloyati.

«KONCHILAR» QO'LGA OLINDI

Navoiy viloyatida tezkor-profilaktik oylikning dastlabki 15 kuni davomida uyushgan jinoyatchilik yo'nalishida 149 ta jinoiy holat aniqlandi. Jinoiy guruhlar a'zolaridan 5 ta ov quroli, 6 dona pnevmatik qurol, 90 dona o'q-dori hamda 12 ta tig'li buyum olindi.

Shuningdek, giyohvandlik vo-sitalarining noqonuniy muoma-lasi bilan bog'liq 71 ta holat fosh etildi. Jumladan, Zarafshon shahri yaqinidagi dala hovlilar-dan birida istiqomat qiluvchi 55 yoshli fuqaro tomorqasida 28 tup nasha o'simligini parva-rish qilayotgani ma'lum bo'ldi. Xonadon ichkarisi ko'zdan kechirilganda esa 4 kilogarmmm 339 gramm miqdorida quritil-gan holdagi zahri qotil topildi.

Navoiy shahrida istiqomat qiluvchi 1981-yilda tug'ilgan shaxs ijtimoiy tarmoq orqali o'zidan 15 yosh katta ayol bilan tanishadi. Qisqa muddat ichida uning ishonchiga kirib, shax-siy fotosuratlarini va videolarini qo'lga kiritadi. Ularni tarqat-maslik evaziga 5000 AQSH dollari talab qiladi. Tovlamachi 3000 AQSH dollarini olayotgan vaqtida qo'lga tushdi.

Konimex tumanida olib bo-rilgan tezkor qidiruv tadbirlari-ning birida 11 nafar shaxsdan iborat jinoiy guruh faoliyatiga chek qo'yildi. Ular tumanning «Karakata» ovul fuqarolar yig'ini hududida noqonuniy ravishda tarkibida tilla zarralari



bo'lgan tosh va qumlarni qazib olayotgan vaqtida qo'lga olindi.

Yuqoridagi barcha holatlar bo'yicha belgilangan tartibda jinoyat ishlari qo'zg'atilib, dast-labki tergov harakatlari olib borilmoqda. Aybdor shaxslarga nisbatan javobgarlik belgilanib, qonun ustuvorligi ta'minlanadi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

«DAMAS»DAGI G'UNAJIN

«Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik oyligi davomida Farg'ona viloyatida qoramol o'g'irligi bilan bog'liq bir qator jinoiy holatlar fosh etildi.

Furqat tumanining «Besh-og'a» mahallasida yashovchi Mahmudjon Egamberdiyev, «Sho'r» mahallasi fuqarosi Xur-sanoy Ashuraliyeva hamda «G'allakor» mahallasida is-tiqomat qiluvchi Azizbek To'ychi-yev ichki ishlar organlariga qoramollari noma'lum shaxslar tomonidan o'g'irlab ketilgani bo'yicha murojaat qilishib, ularni topishda yordam so'rashadi.

Olib borilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida o'g'irlikni Beshariq tumanida yashovchi uch nafar shaxs sodir etgani aniqlandi. Gumondorlar ush-lanib, o'g'irlangan uch bosh qoramol qaytarib olindi.

Shunga o'xshash holat Quva tumanida ham kuzatildi. «Oqqo'rg'on» mahallasida yashovchi fuqaroning dalada qoldirilgan, qiymati 5 million so'mlik bir bosh qoramoli ham o'g'irlangan edi.

O'tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida mazkur jinoyatni Yozyovon tumanida yashovchi to'rt nafar o'smir va ular-ni jinoyat sherigi – Andijon viloyatida istiqomat qiluvchi shaxs sodir etgani hamda ularning yana bir qator qora-mol o'g'irliklariga aloqadorligi fosh etildi.

Eng qiziqarli holat esa Qu-vasoy shahrida ro'y berdi.

Tun yarmi. «Yangi obod» mahallasi hududida xizmat olib borayotgan IIB xodim-lari shubhali harakatlanayot-gan «Damas» avtomashinasini to'xtatishdi. Avtomashina sa-lonida yo'lovchilar emas, balki bir bosh g'unajin bor edi.

Surishtiruvlar davomida uch nafar noma'lum shaxs ushbu qoramolni Farg'ona tumanida-gi dala maydonidan o'g'irlab kelayotgani ma'lum bo'ldi. Ter-gov harakatlari davomida esa yana bir muhim holat yuzaga chiqdi. Ma'lum bo'lishicha, gu-mondorlar uyushgan jinoiy gu-ruch tuzib, 2026-yilning o'tgan davri mobaynida Andijon hamda Farg'ona viloyatining turli hududlarida bir nechta qoramol o'g'irliklarini sodir etishgani ayon bo'ldi.

Ularning «usuli» o'ziga xos bo'lib, «Damas» avtomashi-nasiga sig'adigan kattalikdagi chorva mollarini tanlab, ularni transport vositasiga ortar, shu tariqa odamlar ko'zidan pana holda jinoyat izini yashirishga urinar ekan. Tezkor xodimlar-ni hushyorligi tufayli jinoiy guruhning navbatdagi qilmishi o'z vaqtida bartaraf etildi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



Ватан тинчлиги ва осойишталигини таъминлашни олий мақсад деб билган, хизмат бурчига садоқатни ҳаётининг мазмунига айлантирган, фаолиятида ўзига хос маҳорат мактаби яратган фидойи инсонлар орамизда кўп. Ички ишлар вазирлиги Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги генерал-майор Эркин Норгитов ана шундай ибратли умр соҳибларидан биридир.



– 1969 йили Россиянинг Киров вилоятида муддатли ҳарбий хизматни ўтаб қайтгач, рўйхатдан ўтиш учун мудофаа бўлимига бордим, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – У ерда бир капитан билан шундоқ йўлакда суҳбатлашиб қолдик. Менда ҳали ҳарбий хизмат кайфияти тарқамаган, эгнимда аскарлик кийими эди. У менга синчковлик билан боқиб, «Бизга ишга кирасанми?», деди ва соҳага кадрлар тўпланаётганини тушунтирди. Тўғриси, мени Тошкент гидроэлектр станциясидаги уч йил олдинги ишим – слесарлик кутаётган эди, чунки хизматга кетганимда ўрним сақлаб қолинганди. Бироқ капитаннинг юзидаги ва сўзидаги қатъиятга ҳавас қилиб, ҳужжатларимни топширишга шу ондаёқ қарор қилдим.

Шу кутилмаган таклиф билан тизимга қадам қўйдим. Ўттиз йилдан ортиқ вақт мобайнида ички ишлар органларида оддий ходимликдан раҳбарлик лавозимларигача бўлган йўлни босиб ўтиб, ёруғ юз билан пенсияга чиқдим.

Истеъфодаги генерал-майор Эркин Норгитов фаолияти давомида бор билим ва куч-ғайратини

аямай, Тошкент шаҳар ИИБ Ёнғиндан сақлаш бошқармаси бошлиғи, Ички ишлар вазирлиги ўринбосари, Наманган вилояти ИИБ бошлиғи, Тошкент шаҳар ИИББ бошлиғи ҳамда ИИБ Академияси бошлиғининг ўринбосари сингар масъулиятли лавозимларда сидқидилдан хизмат қилди. Жонкуярлиги, чуқур мулоҳазаси ва ўзига

хос иш услуби билан ҳамкасблари ҳамда раҳбариятнинг эътибори ва ҳурматига сазовор бўлди.

Юртимиз мустақиллигининг дастлабки йилларида хусусан, 1993 йили Наманган вилояти ИИБ бошлиғи лавозимига тайинланган вақтда ҳудуддаги вазият анча мураккаб бўлиб, диний экстремистик гуруҳлар бош кўтара бошлаган эди. Ақидапарастлар

каси Биринчи Президентининг 1994 йил 13 мартдаги Фармони билан «генерал-майор» унвонига сазовор бўлди.

– Ички ишлар органларидек масъулиятли соҳани танлашда шунчаки қизиқиш ёки хоҳишнинг ўзи камлик қилади, – дейди истеъфодаги генерал-майор Эркин Норгитов. – Ходимнинг асосий вақти халқ ичида ўтади. Шу боис у кенг жамоатчилик билан тиллашишни, одамларни тинглашни билиши шарт. Мен узоқ йиллик фаолиятим давомида одамларга яқин бўлишга, уларнинг дардини тушунишга бор кучимни сарфладим ва бугун босиб ўтган йўлимга назар солиб, қалбан қониқиш ҳиссини туяман.

Инсоннинг бағри кенг, нияти пок бўлса, тақдир йўлларида ҳаммиша яхшиликлар унади. Қаҳрамонимиз оилада ҳам меҳрибон ота ва мустаҳкам суянч бўла олди.


Турмуш ўртоғи, охиратлари обод бўлсин, Ҳамида ая билан бирга бир ўғил ва икки қизни эл корига ярайдиган етук инсонлар қилиб тарбиялади. Оиланинг ягона ўғли Шўҳрат Норгитов ота изидан бориб, ички ишлар органларида самарали хизмат қилди ва полковник унвонига истеъфого чиқиб, муносиб издош бўлди. Қизлари – Муҳаббат ва Дилобархон эса педагогик касбини танлаб, ёш авлод таълим-тарбиясига умрларини бахш этди.

Ички ишлар вазирлиги Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги генерал-майор Эркин Норгитов яқин кунларда табаррук саксон ёшни қаршилайди. Бу шунчаки йиллар силсиласида босиб ўтилган оддий рақамлар ёки саксон йиллик ҳаёт чизиги эмас. Бу – ҳар бир куни Ватан равнақига, халқимизнинг фаровон ва осуда ҳаётини таъминлашдек муқаддас мақсадга бағишланган сермазмун ҳаётномадир.

Лавҳамиз қаҳрамони бугун ҳам ўзининг юксак инсоний фазилатлари, бой тажрибаси ва юрак қўрини шогирдларига ҳамда ёш авлод қалбига сингдиришдек шарафли йўлда одимламоқда. Саксон ёшли донишмандлик довомида туриб ҳам, худди ўша йигирма ёшли аскарнинг шижоати ва Ватан ишқи билан меҳнат қилаётган генералнинг ҳаёт йўли – бугунги ва эртанги авлодлар учун бурчга садоқатнинг тирик тимсолидир.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
ўз мухбиримиз.

Донишмандлик довомида



халқ-

ни амалдаги ҳокимиятга қарши қайраб, осойишталикни издан чиқаришга ҳаракат қиларди. Шундай таҳликали ва қалтис вазиятда Эркин Норгитов асло эсанкираб қолмади. Тезда вазиятни қўлга олиб, қора ниятли кимсаларнинг режаларини чиппакка чиқариш учун тизимдаги камчиликларни чуқур ўрганди, моддий-техник базани мустаҳкамлаш ва кадрлар салоҳиятини оширишга алоҳида эътибор қаратди. Кўрилган қатъий чора-тадбирлар самараси ўларок, ҳудудда жиноятлар сони сезиларли даражада камайди, уларни фош этиш кўрсаткичи ортди. Айниқса, вояга етмаганлар жиноятчилиги кескин камайишига эришилди. Мана шундай фидокорона хизматлари муносиб баҳоланиб, Эркин Норгитов Ўзбекистон Республи-



Суратлар таҳририят архивидан олинди.



Kasb fidoyisi

Inson uchun sog'lik-dan aziz ne'mat, omonlikdan ortiq baxt yo'q. Ba'zan inson kutilmagan sinovlarga duch keladi, bir soniyada kishi sog'ligi va hayoti xavf ostida qoladi. Shunday kezlarda yon-atrofdagilarning hushyorligi va ko'rsatgan birinchi yordami uni xavf-xatardan qutqarib qolishi mumkin.

Qo'shtepa tumani ichki ishlar bo'limi Probatsiya guruhi inspektori, katta leytenant Shukurullo Rajabovning xizmat faoliyatida yuz bergan ushbu voqea bir inson, bir oila qalbida muhrlanib qoldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'sha kuni u «Fayz» savdo majmuasi hududiga xizmatga biriktirilgan edi. Jazirama yoz, issiq havo taftidan nafas qaytadi. Shu dam o'tish yo'lagi chetida turgan onaxon va uning nabirasi xodimning diqqatini tortdi. Qarasa, onaxon turgan joyida tebrana boshlayapti. U yugurib borib onaxonni tutib

qoldi. Yerga o'tqizib, tez tibbiy yordam chaqirdi. Ular kelguncha yuziga suv sepib, birinchi tibbiy yordam ko'rsatdi.

Shifokorlarning aytishicha, Qo'shtepa tumani Qorakaltak mahallasida yashovchi, 1954-yilda tug'ilgan onaxon Sidiqaxon Turdaliyevaning qon bosimi keskin tushib ketgan bo'lib, tezda yordam ko'rsatilmaganida, oqibati yomon bo'lishi mumkin ekan.

Ertasi kuni Shukurullo Rajabov Sidiqaxon momoning holidan xabar olish uchun uning xonadoniga yo'qlab bordi.

– O'g'lim, siz menga ikkinchi hayot baxsh etdingiz. Umringizdan baraka toping. Agar tezda yordam ko'rsatmaganingizda bugun farzandlarim, nabiralarim bag'rida o'tirmagan bo'larmidim?!. Sizga va sizdek el osoyishtaligi yo'lida xizmat qilayotgan barcha ichki ishlar xodimlariga kuch-quvvat tilayman, – deya duoga qo'l ochdi Sidiqaxon momo. – Sizdek farzand o'stirgan, tarbiyalagan ota-onangizga katta rahmat!

XALOSKOR POSBON



Bu duo katta leytenant uchun har qanday mukofotdan ortiq bo'ldi.

Darhaqiqat, ichki ishlar organi xodimi faqat qonun himoyachisi emas. U zarur paytda shifokor, maslahatchi, qutqaruvchi va eng avvalo, inson hayoti uchun mas'ul fidoyi insondir. Shukurullo Rajabovning hushyorligi, kasbiy mahorati va eng muhimi, inson taqdiriga

befarq bo'lmagani bir oilani musibatdan saqlab qoldi.

Ma'lumot uchun, katta leytenant Shukurullo Rajabov Toshloq tumanida tug'ilib, o'sgan bo'lib, 2021-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelmoqda. Oilali, 3 farzandning otasi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Halollikni shior qilgan xodimlar

PORA – SAROB
uni olganning umri xarob

Yarim tun bo'lishiga qaramay, avtomashinalar qatnovi davom etardi, osoyishtalik posbonlari ham tinim bilmaydi. Ayniqsa, YPX inspektorlari yo'l-transport hodisasining oldini olish maqsadida avtomashinalar qatnovini doimiy nazorat qilib borishadi. Qoidabuzarlarni to'xtatib, ogohlantirishadi. Ba'zan esa...

– 7-safarbarlik guruhi inspektorlari tomonidan «M-37» avtomagistralida harakatlanayotgan «Cherry» rusumli avtomashina haydovchisi mast holatda ekanligi aniqlanib, unga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiriladi va avtomashina jarima maydonchasiga qo'yiladi, – deydi viloyat IIB JXX YHXB ma'muriy amaliyot markazi kichik inspektori, safdor Mavlonbek Halimov. – Ertasi kuni xizmat xonamga haydovchi va uning sherigi keldi. Ular Xiva shahrida yashovchi fuqarolar ekan. Holat bo'yicha surishtiruv ishlarini olib borganimda, avtomashina egasi uzoq yo'ldan kelayotganligi sababli avtomashina boshqaruvini tanishiga berganini tan oldi. Tanishi esa mast holatda bo'lgan.



Ishni oson hal qilamiz deb kelishgan jo'ralar qonunbuzarlikning yana bir moddasi qo'shilgani va haydovchilik guvohnomasi ham qo'ldan ketishini bilgach, nima qilarini bilmay shoshib qolishdi. Shu bois mas'ul xodimga avtomashina egasi 2000 AQSH dollari miqdorida pul bermoqchi bo'ldi va evaziga holat yuzasidan qonunni chetlab o'tishni iltimos qildi.

Ichki ishlar organi xodimi qasamyodiga sodiq qoldi va avtomashina egasining bu xatti-harakatlari to'g'ri-

risida rahbariyatni xabardor qildi. Ko'p o'tmay tezkor tadbir o'tkazildi. Tadbirda huquqbuzar 25 million so'm miqdoridagi pullarni osoyishtalik posboniga pora tariqasida bergan vaqtida jinoyat ustida ushlendi.

Viloyat IIB JXX YHXB ma'muriy amaliyot markazi kichik inspektori, safdor Nodirbek Muhiddinov Kogon tumani IIBda ma'muriy ishlarni o'rganishga jalb qilindi. U o'rganishlar davomida 6-may kuni Samarqand viloyati Paxtachi tumanida yashovchi

B.B. «Nexia-3» rusumli transport vositasini spirtli ichimlik ta'sirida mast holda boshqarganligi bo'yicha rasmiylashtirilgan ma'muriy bayonnoma ko'rib chiqildi.

Haydovchi B.B. hujjatlarni sudga chiqarmaslik evaziga xodimga 20 million so'm miqdoridagi pullarni pora sifatida taklif qildi. Safdor N.Muhiddinov bu holat qonunga zidligini tushuntirishiga qaramasdan, qoidabuzar fuqaro o'z fikrida qat'iy turib oldi. Shundan so'ng osoyishtalik posboni viloyat IIB boshlig'i nomiga bildirgi bilan murojaat qilib, qonunda belgilangan tartibda chora ko'rilishini so'radi.

Mazkur bildirgi asosida shu kuniyoq IIV SHXBB Buxoro viloyati bo'yicha boshqarmasi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Kogon tumani bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro B.B. 20 million so'm miqdoridagi pullarni pora tariqasida berayotganda daliliy ashyolar bilan qo'lga olindi.

Halollikni shior qilgan lavhamiz qahramonlari singari o'z burchi va kasbiga sodiq xodimlar bor ekan, tizimda korrupsion holatlar barham topib, fuqarolar ishonchi ortib boraveradi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

XAVFSIZ MAHALLA —



Mahalla – xalqqa eng yaqin boshqaruv bo'g'ini. Odamlarning kundalik masalalari shu yerning o'zida, ortiqcha ovoragarchiliksiz hal bo'lishi kerak.

SH. MIRZIYOYEV



OSOYISHTA YURT OSTONASI

So'nggi yillarda mahalla institutini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. «Yettilik» tizimi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Shu bilan birga, amaliyot bu tizimda davlat tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, raqamli boshqaruvni to'liq joriy etish va mahallalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatdi.

Bu borada o'tgan haftada davlatimiz rahbari huzurida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida bu yil infratuzilmani yaxshilash, odamlar va tadbirkorlar uchun sharoit yaratish maqsadida tumanlarga o'rtacha 250 milliard so'mdan, mahallalarga esa 5,5 milliard so'mdan mablag' berilgani alohida ta'kidlandi.

Mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha yaratilgan tizim o'z natijasini berayotgani, so'nggi uch yilda kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan 1 ming 162 ta mahallaning 571 tasida bu yil birorta jinoyat sodir etilmagani, bunga videokameralar o'rnatilib, xavfsiz ko'cha va yo'laklar tashkil qilingani, aholi muammolari ilmiy asosda hal etilgani, oilalarga psixologik yordam ko'rsatilgani natijasida erishilgani alohida qayd etildi.

Prezidentimizning yaqinda Toshkent shahar Sergeli tumanidagi «O'zgarish» mahallasiga tashrifi esa, har bir mahallani xavfsiz makonga, osoyishta hududga aylantirish yuzasidan bergan topshiriqlari bu yo'nalishda amalga oshiriladigan ishlar uchun o'ziga xos yangi dasturulamal bo'ldi. Tashrifda xavfsiz va obod mahalla qanday bo'lishi, uni qay tarzda shakllantirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 24-iyundagi «Mahalla boshqaruvini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni mahallani xalq bilan davlat o'rtasidagi haqiqiy «ko'pri»ka aylantirish, xavfsiz mahallani shakllantirish uchun muhim huquqiy asos bo'ldi.

«Xavfsiz mahalla» deganda, aholining tinch va osoyishta hayoti ta'minlangan, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimli yo'lga qo'yilgan, davlat tashkilotlari va jamoatchilik hamkorligi samarali tashkil etilgan hudud tushuniladi.

Farmonda «yettilik» a'zolarining vazifalari aniq va lo'nda belgilanib, har bir mas'ulning

o'z yo'nalishi bo'yicha ishlashiga katta imkoniyat yaratdi. Endilikda rais faqat «yettilik» a'zolari ishini muvofiqlashtiruvchi emas, balki ularni yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi strategik rahbar sifatida faoliyat olib boradi. U mahalladagi mavjud imkoniyatlar, aholi ehtiyojlari, hududning o'ziga xos xususiyatlari va muammolarini chuqur o'rganib, ular asosida ustuvor strategik vazifalar belgilaydi.

Farmonga muvofiq, hokim yordamchilari mahalla iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha bosh menejer sifatida faoliyat yuritadi. Mahallaning iqtisodiy imkoniyatlarini ishga solish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ular faoliyati aholi daromadlarining o'sishi bilan baholanadi.

Videoselektor yig'ilishida profilaktika inspektorlarining ish yuklamasi qisqargani natijasida ayrim mahallalarda jinoyatlar 10 tadan 5 taga kamaygani, mazkur tajribani yil yakunigacha Namangan viloyatida to'liq, qolgan hududlarda esa kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan 448 ta mahallada yo'lga qo'yish vazifasi belgilanigani alohida qayd etildi.

Endilikda ular faqat huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin chora ko'radigan xodim emas, balki mahallada jinoyatchilikning oldini oladigan, kriminogen vaziyatni tahlil qiladigan, xavf omillarini barvaqt aniqlaydigan hamda davlat organlari va

jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtiradigan asosiy mas'ullardan biri hisoblanadi.

Profilaktika inspektori mahalladagi ijtimoiy holat, oilalardagi muammolar, yoshlar o'rtasidagi salbiy holatlar, maishiy nizolar, ishsizlik, qarz-dorlik va ta'limdan chetda qolish kabi ko'plab omillarni doimiy tahlil qilib boradi va ana shu tahlillar asosida profilaktik tadbirlar rejalashtiradi.

Jinoyatchilikni jilovlashga mas'ul ilmiy tashkilotlar bilan birga namunali mahallalar tajribasi asosida metodika ishlab chiqiladi. Yil davomida «qizil» va «sariq» toifadagi mahallalar profilaktika inspektorlari ushbu metodika bo'yicha joyiga borib o'qitiladi.

Endilikda xotin-qizlar faoli – oila barqarorligi va xotin-qizlar manfaatlarining asosiy himoyachisi sifatida oilaviy nizolar, ajralish xavfi, ishsizlik, aliment, erta nikoh, migratsiya, tarbiyasi og'ir qizlar, tazyiq va zo'ravonlik kabi muammolarni birinchi bo'lib aniqlaydigan va uni barvaqt hal qilishga ko'maklashadigan mas'ul hisoblanadi.

«Yoshlar yetakchisi – har bir yosh taqdiri uchun mas'ul lider» sifatida yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga, jamiyat uchun foydali va umum-milliy manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradi. Ularning shaxsiy rivojlanishi, iqtidori va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tadbirlar tashkil etadi.

Bundan buyon mahalla soliq inspektori faqat soliq ishi yo'nali-

shi bilan cheklanib qolmaydi. Mahallaning iqtisodiy salohiyatini baholaydi, mavjud rezervlarni aniqlaydi. Iqtisodiy holatni chuqur o'rganib, tahlil qiladi.

Jumladan, mahalla hududida joylashgan korxonalarda ishlayotgan xodimlarning barchasi soliq hisobotlarida mavjudligini o'rganadi va qonuniy faoliyat yuritishini nazorat qiladi.

Ijtimoiy himoya xodimlari og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalarga bevosita mahalla darajasida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi.

Farmonning yana bir muhim jihatlaridan biri – endilikda yettilikning har bir a'zosi faqat o'z yo'nalishi bilan cheklanmaydi, balki mahalladagi umumiy natija uchun birgalikda mas'ul bo'lishadi.

Faoliyatni baholashda ham asosiy e'tibor jarayonga emas, natijaga qaratiladi. Ya'ni mahallada ishsizlik kamaydimi, yangi ish o'rinlari yaratildimi, kambag'allik qisqardimi, huquqbuzarliklarning oldi olindimi, aholi murojaatlari o'z vaqtida hal etildimi – ana shu ko'rsatkichlar asosiy mezonga aylanadi.

Shuhrat RO'ZIYEV, o'z muxbirimiz.



Qoraqalpoq
tilida



Rus
tilida



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Huquq va hayot

FUQAROLIK – HUJJAT EMAS, TAQDIR MASALASI

Har bir inson uchun tugʻilib-oʻsgan yurti, oʻzini daxldor his qiladigan Vatani boʻlishi tabiiy. Biroq taqdir taqozosi bilan yillar davomida bir mamlakatda yashab, mehnat qilib, farzand kamolga yetkazgan boʻlsa-da, huquqiy jihatdan «fuqaroligi boʻlmagan shaxs» maqomida qolayotganlar ham yoʻq emas. Bunday vaziyatda fuqarolik shunchaki rasmiy hujjat emas, balki insonning ertangi kunga boʻlgan ishonchi, qonuniy huquqlari va jamiytdagi toʻlaqonli oʻrnini belgilovchi hayotiy ehtiyojga aylanadi. Shu bois yurtimizda fuqaroligi boʻlmagan shaxslarni qoʻllab-quvvatlash va ularning huquqiy maqomini qonuniy asosda hal etish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda.

Ayni kunlarda respublika boʻylab oʻtkazilayotgan «Xavfsiz va sogʻlom yurt» tezkor-profilaktik tadbiri doirasida Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Migratsiya va personallashtirish boshqarmasi tomonidan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Ichki ishlar vazirining 200-son



hamda Xorazm viloyati IIB boshligʻining 55-son farmoyishlari asosida mazkur tadbirga 13 ta sohaviy xizmat jalb etilib, 98 ta yoʻnalish boʻyicha vazifalar belgilandi. Oldinga qoʻyilgan topshiriqlar ijrosini oʻz vaqtida va sifatli taʼminlash maqsadida 18 nafar malakali xodimdan iborat maxsus ishchi guruh shakllantirildi.

Tadbir davomida fuqarolarning yashash joyi boʻyicha roʻyxatdan oʻtish qoidalariga rioya qilishi, pasport-viza tizimi talablarining bajarilishi hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning huquqiy maqomi atroflicha

oʻrganilmoqda. Shu maqsadda mehmonxonalar, xostellar, yirik qurilish obyektlari hamda boshqa maskanlarda profilaktik nazorat tadbirlari izchil davom ettirilmoqda. Eng muhimi, bu saʼy-harakatlar orqali ayrim insonlarning yillar davomida hal etilmagan muammolari oʻz yechimini topmoqda. Masalan, ayni kunlarda Shovot tumanida istiqomat qiluvchi Zulfiya Oʻrazmetova hamda Tuproqqalʼa tumanida yashovchi Gʻafur Yaxshiboyevga Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini rasmiylashtirishda amaliy yordam koʻrsatilib, ularning koʻp yillik orzulari roʻyobga chiqarilmoqda.

Tahlillarga koʻra, soʻnggi yillarda bu boradagi ishlar mutlaqo yangi bosqichga koʻtarilgan. Xususan, 2016–2026-yillar davomida Xorazm viloyatida doimiy yashab kelgan jami 533 nafar fuqaroligi boʻlmagan shaxs Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlariga asosan mamlakatimiz fuqaroligiga qabul qilindi. Bu saʼy-harakatlar uzoq yillar davomida arosatda qolgan yuzlab oilalarga haqiqiy baxt va ertangi kunga ishonch bagʻishladi.

Mazkur raqamlar shunchaki statistika emas. Har bir raqam ortida bir insonning taqdiri, bir oilaning porloq umidi va ertangi kunga boʻlgan mustahkam ishonchi mujassam. Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, bugun migratsiya va personallashtirish tizimi nafaqat davlat xavfsizligini taʼminlash, balki inson qadrini ulugʻlash, fuqarolarning huquq hamda manfaatlarini chinakamiga himoyalashga xizmat qilmoqda. Zero, fuqarolik – shunchaki shaxsni tasdiqlovchi hujjat emas, balki insonning oʻz Vatani bilan uzviy, huquqiy va maʼnaviy bogʻliqligidir.

Ruslan MATYOQUBOV,
Xorazm viloyati IIB huzuridagi
Migratsiya va personallashtirish
boshqarmasi boshligʻi,
podpolkovnik.

Qoʻriqlash xizmati

ISHONCHLI QOʻRIQLOV – XOTIRJAMLIK GAROVI

Toʻrtkoʻl tumani mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish, obyektlar va aholi xonadonlarini samarali qoʻriqlashni taʼminlash maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada «Xavfsiz mahalla», «Sifat, ishonch va xavfsizlik» shiorlari ostida oʻtkazilayotgan profilaktik-targʻibot tadbirlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eʼtiborli jihati, mazkur jarayonda profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi bilan yaqin hamkorlik yoʻliga qoʻyilgan.

Yaqinda «Yangiobod» MFY hududida tashkil etilgan targʻibot tadbirida fuqarolarga zamonaviy

qoʻriqlash-signalizatsiya uskunalarini haqida batafsil maʼlumot berilib, tezkor harakatlanuvchi guruh faoliyati yaqindan tanishtirildi. Shuningdek, xizmat koʻrsatish obyektlari va xonadonlarga signalizatsiya vositalarini oʻrnatish orqali oʻgʻrilik va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish choralari tushuntirildi.

Suhbatlar davomida aholi punkti va savdo shoxobchalarini zamo-



naviy texnik vositalar yordamida qoʻriqlash fuqarolar mol-mulkini asrashda qanchalik muhim ekani hayotiy misollar bilan tushuntirib oʻtildi.

Taʼkidlash joizki, bugungi kunda tuman IIB huzuridagi Qoʻriqlash xizmati texnik qoʻriqlash markazi tomonidan 522 ta obyekt va 464 ta xonadon ishonchli qoʻriqlanmoqda. Targʻibot ishlari samarasi

oʻlaroq, ularning soni tobora oshib bormoqda.

Targʻibot-tashviqot tadbirlari tumanning boshqa hududlarida ham davom ettirilmoqda.

Rustam YUSUPOV,
Toʻrtkoʻl tumani IIB huzuridagi
Qoʻriqlash xizmati boshligʻi,
podpolkovnik.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi.



Bizning suhbat

MILLIONLAR KUTGAN SHARHLOVCHI

O'tgan asrning 90-yillarida teleekran afsonalaridan biriga aylangan taniqli siyosiy sharhlovchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Qobilbek Karimbekov yaqinda 70 yoshni qarshiladi. Ustoz bilan suhbatimiz qizg'in kechdi.

Yillar davomida televideniye va radioda salkam 50 xil nomdagi ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etdim. Qirq yildan ko'proq davr ichida faoliyatim davomida 4500 dan ortiq teleko'rsatuv, 2700 ga yaqin radioeshittirish tayyorlabman.

– **Dunyo mamlakatlari haqida gapirganingizda ularni o'z ko'zingiz bilan ko'rganingiz boshqacha taassurot beradi. Shunday emasmi?**

– Sharhlovchilik faoliyatim davomida Yaponiya, Fransiya, Chexiya, Slovakiya, Eron, Belgiya, Turkiya singari o'nlab xorijiy davlatlarga qilingan rasmiy safarlar haqida o'ziga xos hujjatli ko'rsatuvlar tayyorlab, millionlab «zangori ekran» muxlislariga taqdim etdim. Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo bo'lgan mamlakatlar rahbarlarining uchrashuvlari to'g'risida tayyorlangan turkum ko'rsatuvlar ham ijodiy faoliyatimda muhim o'rin tutadi.

– **Taniqli inson bo'lishning zavqli tomonlari ko'p deyishadi...**

– O'sha kezlari bir kun televizorga chiqmasam, o'zimni bir nimam-

ni yo'qotib qo'ygandek his qilardim. Chindan ham teleekranning o'ziga xos sehr-jozibasi bor. Ko'cha-ko'yda xalqaro voqealarga qiziqadigan kishilar kelib «o'zim»mi yoki «boshqa»ligimni so'rashardi. Keyin rahmat aytib, o'zlarining takliflarini bildirishardi. Yosh bolalar esa, salom berishni ham unutib, bir-birini turtib: «Qara, anovi televizorda chiqadigan kishi-ku!» – deb hayratlanishardi.

– **Yoshingizga nisbatan juda tetik va g'ayratlisiz, buning siri nimada?**

– Yoshartiradigan dori ichib yuraman (kulib). Buning siri oddiy. Fe'lim keng, ko'nglimda bironvga yomonligim yo'q. Doim foydali yumush bilan band bo'laman. O'qiyman, izlanaman, bilganlarimni bironvarga aytib beraman.

Qolaversa, ko'proq piyoda yuraman, velosiped haydash ham sevimli odatim. Sog'lom turmush tarziga odatlangan inson hamisha g'ayratli bo'ladi, deb o'ylayman.

– **Ustoz, ayni paytda nimalar bilan bandsiz?**

– Ayni paytda kitob mutolaa qilaman, gazeta-jurnallarni qoldirmasdan o'qiyman, izlanaman. O'zbekiston Milliy universiteti bilan televideniye to'plagan bilimimni, orttirgan tajribalarimni bugun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, mahallalar hamda oliy ta'lim muassasalarida tinglovchilarga «Ma'rifat darslari»da ulashib kelyapman.

– **Aslida intellektning bahosi ancha qimmat turadi. Ma'ruzalaringizning bahosi qancha?**

– Targ'ibotchi bo'lish uchun inson eng avvalo vatanparvar bo'lishi kerak. U Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning ma'no-mazmunini tinglovchilar ongiga singdira olishi lozim. Zamonning o'zi ma'naviyatchi, targ'ibotchidan chuqur bilim, ko'nikma va tajribalarni talab qilmoqda. Ma'naviyatsizlik va g'oyasizlikning kuchayishi har qanday jamiyatni tanazzulga yetaklaydi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantiradi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo'ladi. Ma'ruzalarim kimlargadir ijobiy ta'sir qilayotganidan, ularga foyda berayotganidan xursandman.

Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlarining siyosiy ongini oshirishdagi xizmatlarim doimiy ravishda munosib rag'batlantirib kelingan. Masalan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan faxriy yorliq va esdalik qo'l soati bilan taqdirlanganman, buni pulga chaqib bo'ladimi?

– **Faoliyatingizning eng qizg'in pallasi qaysi davrga to'g'ri keladi?**

– 1978-yilda Toshkent Davlat universitetida ilk ish faoliyatimni boshlagan bo'lsam, 1981-yildan televideniye o'z bag'riga chorladi, 2017-yilga qadar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasida faoliyat yuritdim.

Ko'cha-ko'yda xalqaro voqealarga qiziqadigan kishilar kelib «o'zim»mi yoki «boshqa»ligimni so'rashardi. Keyin rahmat aytib, o'zlarining takliflarini bildirishardi.



P.S.

Tabarruk yoshga yetgan ustoz ijodkor ichki ishlar organlarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda hamisha faol ishtirok etadi. U 2001-yilda «Shuhrat» medali bilan mukofotlangan. 2016-yilda esa «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist» faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

Bugungi kunda I darajali «Mehnat faxriysi» ko'krak nishoni sohibi bo'lgan Qobilbek Karimbekov O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti faxriy professori hisoblanadi.

Turmush o'rtog'i Gulandomxon aya bilan birgalikda 5 nafar farzandni voyaga yetkazib, bugun 14 nafar nevara va 2 nafar evaraning mehribon bobo-buvisi bo'lib hayot zavqini tuyib yashamoqdalar.

Yaqin kunlarda nashrdan chiqadigan «Zangori ekran zargari» nomli kitobda bir zamonlar efirga chiqishini millionlab teletomoshabinlar kutgan nuktadon sharhlovchi Qobilbek Karimbekovning hayoti va faoliyati, umr yo'llarida yo'qotganlari va topganlari haqida batafsil so'z yuritilgan.

G'ofur JABIYEV suhbatlashdi.

Safarnoma

OLIS YO'L SARGUZASHTLARI

Yurtimizda yuz berayotgan o'zgarishlarni kuzatar ekansiz, farovon va xotirjam hayotimizga ko'z tegmasin, degan dil so'zlari beixtiyor tilingizga ko'chadi. Ha, osoyishta yurtimizga sayyohlar tashrifi sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Ularning tinchligini va xavfsizligini saqlash Ichki ishlar organlari sohaviy xizmat xodimlariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Toshkent shimoliy vokzalida erta tong – hamma yoq sokin va pokiza, kiraverishdagi favvoralaridan ajib bir salqinlik ufurib turibdi, tevaragidagi rang-barang gullar insonga zavq bag'ishlaydi.

Tahririyat topshirig'i bilan xizmat safari yuzasidan Samarqandga o'tlanganman. 764-sonli «Toshkent–Samarqand–Qarshi» yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi «Afrosiyob» tezyurar elektropoyezdiga chiqdim.

TANISHUV VA QIZIQARLI SUHBAT

O'rinlariga joylashib olgan yo'lovchilarni birma-bir kuzatib biz tomon kelayotgan maxsus formal yigitlarga salom berib so'rashdim va chiptamni ko'rsatdim. Ular ushbu tezyurar poyezd boshlig'i Bekzod Yo'ldoshev va poyezd osoyishtaligiga mas'ul Ichki ishlar xodimi – katta leytenant Sulton Narziyev ekan. Ularni suhbatga tortdim.

– Biz xizmat olib borayotgan ushbu poyezd tezligi, zamonaviy va qulayligi bilan har qanday yo'lovchiga manzur bo'lmoqda, – deydi poyezd boshlig'i. – Bizda ishlash uchun xizmatchilar alohida mezonlar bo'yicha imtihon topshirib tanlovdan o'tishadi. Chunki, vagon kuzatuvchisi bilimli, yetuk madaniyatli, intizomli va eng muhimi xorijiy tillarda so'zlasha olishi shart.

Rosti-da, yo'lovchilar bilan iliq munosabatda bo'lib xizmat ko'rsatadigan professional xodimlar borligi har qanday insonga ijobiy kayfiyat bag'ishlaydi.

BLOGERNING EHTIROMLI E'TIROFI

Yangi tanishim – IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi inspektori, katta leytenant Sulton Narziyev joriy yil may oyining oxirgi kunlarida 770-sonli «Toshkent–

tini diqqat bilan tinglaydi va albatta amaliy yordam berishini aytadi.

Zukko inspektor zudlik bilan Navbatchilik qismiga axborot beradi, joylardagi sohaviy xizmatlar murojaatga tezda javob qilishadi. S.Narziyev bu bilan cheklanib qolmasdan, sayyohlarni vokzalga eltib qo'ygan taksichining va mehmonxona administratorining ham telefon raqamlarini topib, ularga qo'ng'iroq qiladi. Jonkuyarlik bilan olib borilgan ishlar natijasida buyumlar topiladi va sayyohlar ushbu poyezdda Toshkentga qaytishayotganida egalariga topshiriladi. Inspektorning bu ishdan xursand bo'lgan sayyoh Tani An o'zining Instagram sahifasiga mamnuniyat bilan post qoldirdi:

– O'zbekiston tom ma'noda xavfsiz va mehmondo'st mamlakat ekanligini e'tirof etaman. Sababi – o'z ehtiyotsizligimiz oqibatida yo'qolgan buyumlarimizni o'zbek politsiyasi



Buxoro» yo'nalishida harakatlanuvchi «Afrosiyob» poyezdida xizmat olib borardi. Samarqand vokzalida to'xtashganida, qo'shni qirg'izistonlik blogger va tarjimon Tani Anisimova (Instagram tarmog'ida – Tani An) hamrohi – germaniyalik sayohatchi bilan birga Buxoroga sayohat qilish uchun ushbu poyezdga chiqadi.

Joyiga o'tirib olgach ne ko'z bilan ko'rsinki, germaniyalik sayyohning sumkasida plansheti va telefoni yo'q. Mehmonlar zudlik bilan vagon kuzatuvchisiga murojaat qiladi, u esa poyezdda xizmat olib borayotgan katta leytenant S.Narziyev oldiga boradi. Inspektor mehmonlarning murojaa-

tezlik bilan bus-butun holida topib berdi. O'z navbatida, «Afrosiyob» poyezdida xizmat o'tayotgan vagon kuzatuvchilari va inspektor katta leytenant Sulton Narziyevga ulkan minnatdorlik bildiraman. U professional, chaqqon va zukko xodim bo'lish bilan birga juda mehribon va mehmondo'st inson ekaniga qoyil qoldim. Men bu holatni videotasvirga oldim va o'zimning Instagram sahifamga joyladim. Maqsadim – O'zbekiston qanchalik xavfsiz va odamlari mehribon, mehmondo'st ekanligini ko'rsatish. Germaniyalik sayyoh do'stim ham juda katta taassurotlar bilan qaytmoqda. O'zbekistonga yaqinlari va do'stlari bilan yana kelishga va'da berdi.



QONUN USTUVOR, JAZO MUQARRAR

– Xizmat tajribalarimdan angladimki, poyezdda yurar ekanmiz, har qanday vaziyatda ham nihoyatda og'ir-bosiq va qonunlarimizga sodiq holda xizmat olib borishimiz kerak, – deydi katta leytenant S. Narziyev. – Yo'lda ba'zan noqonuniy holatlar va huquqbuzarliklar sodir bo'lib turadi. Misol uchun, yaqinda vagonlardan birida fuqarolar o'zaro janjal ko'tarishayotgani haqida xabar tushdi. Zudlik bilan borib vaziyatni o'rganimizda aniq bo'ldiki, 5-vagonning 31-joyi uchun ikki yo'lovchi talashyapti. Ikkalasining ham qo'lida shu nomerga yozilgan chipta bor. Aniqlaganimizda, bittasidagi elektron bilek qalbaki bo'lib chiqdi. Uning yasama ekanligi yuzasidan dalolatnoma tuzib, qonunbuzar fuqaroni Samarqand vokzali Transport boshqarmasi xodimlariga topshirdim.

Kuni kecha 770-sonli «Toshkent–Buxoro» yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi «Afrosiyob» tezyurar poyezdida yana bir holat haqida xabar keldi. Aytilishicha, Pokistondan mamlakatimizga dam olish maqsadida kelgan biznesmen – Khan Pervez Ahsan ismli sayyoh mazkur poyezdga Toshkent shahridan yo'lovchi sifatida o'tirgan va Samarqandda tushib qolgan. Ammo u o'z o'rindig'ida qora rangli sumkasini unutib qoldirgan.

– Sumkani topib olgan vagon xizmatchisining xabari bo'yicha voqea joyiga yetib bordim, – deydi S. Narziyev. – Xolislar ishtirokida topilma yuzasidan dalolatnoma tuzilib, sumka va ichidagi barcha buyumlar to'liq holda egasiga topshirildi. Ko'rsatilgan yordamdan mamnun sayyoh barchaga chuqur minnatdorlik bildirdi.

Ko'rib turibmizki, ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyati fuqarolar xavfsizligi va ularning mol-mulkini asrash barobarida, O'zbekiston imijini yuksaltirish, xorijlik mehmonlar nazdida yurtimiz va xalqimiz nufuzini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.



So'nggi o'ttiz yilda Markaziy Osiyo aholisi qariyb ikki baravarga yaqin ko'paydi. Shaharlar kengaydi, sanoat hajmi ortdi, oziq-ovqatga talab oshdi. Tabiiyki, bular bari ko'proq suv talab qiladi, biroq suv resurslari hajmi aholi bilan birga o'smaydi. Aksincha, iqlim o'zgarishi tufayli tabiatning o'zida suv zaxiralari kamaymoqda.

E'tiborli jihati — oxirgi yillarda mamlakatda suvga munosabat sezilarli o'zgardi. Ilgari suvga ko'proq qishloq xo'jaligi resursi deb qaralgan bo'lsa, bugun u iqtisodiy o'sish, energetika xavfsizligi, ekologik barqarorlik va aholi farovonligini belgilovchi omilga aylanmoqda. Bu o'zgarishni rasmiy statistikada ham ko'rish mumkin. Suv xo'jaligi sohasida raqamlashtirish, hisobga olish tizimlarini joriy etish, suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ko'pchilik e'tibor bermaydigan yana bir muhim jihat bor. Odatda suv haqida gap ketganda asosiy urg'u tanqislikka beriladi. Vaholanki, mutaxassislar boshqa muammoni tobora ko'proq tilga olmoqda — samaradorlik masalasini. Masalan, BMTning «UN-Water» tashkilotining so'nggi tahlilida O'zbekistonning suv sohasidagi yutug'i yangi manbalar topilgani emas, aynan mavjud resurslardan unumliroq foydalanishga qaratilgan islohotlar bilan izohlanadi. Hisobotda mamlakat suv bosimi darajasini qisqartirish bo'yicha dunyodagi eng sezilarli natijalardan biriga erishgani qayd etilgan.

Mavzuning kam muhokama qilinadigan yana bir tomoni — suvning iqtisodiy qiymati haqidagi tasavvurlar. Uzoq yillar mintaqada suvga amalda cheklanmagan resurs sifatida qarab kelingani uni tejash madaniyati shakllanishiga to'sqinlik qildi. Bugun esa vaziyat o'zgarmoqda, chunki ortiqcha sarflangan har bir kubometr suv qishloq xo'jaligida hosildorlik pasayishi, energetikada qo'shimcha xarajatlar yoki ekologik tizimlar uchun yo'qotilgan imkoniyat deganidir.

Ayniqsa, Orol dengizi tarixi bu borada muhim saboq bo'lib qolmoqda. Ko'pchilik o'tmish fojiasi sifatida qabul qilsa-da, aslida u kelajak haqidagi ogohlantirishdir. Chunki Orol halokati bir kunda yuz bermagan, u o'nlab yillar davomida to'plangan qarorlar, xato hisob-kitoblar va resurslarga nisbatan noto'g'ri munosabat natijasi bo'lgan. Bugungi suv siyosati ham xuddi shunday uzoq muddatli oqibatlarni shakllantirmoqda. Shu ma'noda, hozir qabul qilinayotgan qarorlar nafaqat bugungi avlod, balki kelajak o'n yilliklar taqdirini belgilab berishi mumkin.

Shuning uchun ham suv haqidagi bahslar endi tabiat muhofazasi doirasida qolib ketmayapti. Ular iqtisodchilar, siyosatchilar, demograflar va xavfsizlik bo'yicha ekspertlar muhokama qiladigan masalaga aylandi.

Ehtimol, kelajakda mamlakatlar qudrati neft zaxiralari yoki sanoat korxonalari soni bilan emas, balki suvdan qanchalik oqilona foydalana olishi bilan baholanar. Shunday bo'lsa, bugun mintaqada kechayotgan jarayonlar ertangi kun iqtisodiyotining poydevorini yaratmoqda, deyish o'rinli va bu kelajak, ehtimol, har bir tomchidan boshlanar.

yoshi. Mintaqaning katta qismidagi kanallar, nasos stansiyalari va gidro-texnik inshootlar o'tgan asrda qurilgan. Ularning aksari bugun ham ishlamoqda, biroq muhandislik nuqtayi nazaridan ko'plab obyektlar modernizatsiyaga muhtoj. Shu sababli so'nggi yillarda xalqaro moliya institutlari aynan suv infratuzilmasini yangilashga milliardlab dollar yo'naltirmoqda.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa tashkilotlar hisobotlarida bir fikr qayta-qayta uchraydi: kelajakda yangi suv manbalarini topishdan ko'ra, mavjud tizimlardagi yo'qotishlarni qisqartirish muhimroq bo'ladi. Bu qarash Markaziy Osiyo uchun ayniqsa dolzarb, zero, ba'zi hollarda infratuzilmadagi yo'qotishlar yangi obyekt qurish orqali olinadigan samaradan ham yuqori bo'lishi mumkin. O'zbekiston bu jarayonda alohida o'rin tutadi, chunki mamlakat geografik jihatdan mintaqa markazida joylashgan. Amalda barcha asosiy suv, energetika va transport loyihalari u yoki

bir fikrni tobora ko'proq takrorlamoqda: XXI asrda iqtisodiy raqobatbardoshlikni belgilovchi omillardan biri aynan suv samaradorligi bo'ladi.

Bu bir qarashda g'alati tuyulishi mumkin: axir suv sotiladigan yoki birjada savdo qilinadigan oddiy tovar emas-ku. Ammo har qanday mahsulot ortida suv bor. Bir kilogramm bug'doy, bir dona non, bir kilogramm paxta, bir tonna po'lat yoki bir kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun ma'lum miqdorda suv sarflanadi. Shuning uchun iqtisodiyot aslida ko'rinmas suv oqimlari orqali ham harakat qiladi.

Yana bir muhim jihat — shaharlar omili. Odatda suv haqidagi muhokamalar qishloq xo'jaligi atrofida aylanadi, ammo Markaziy Osiyoda urbanizatsiya sur'ati tobora ortmoqda. Yangi turarjoylar, sanoat zonalar, logistika markazlari va xizmat ko'rsatish tarmoqlari barpo etilmoqda. Bu esa suvga bo'lgan talab tarkibini o'zgartirmoqda. Ilgari asosiy e'tibor dalalarga qaratilgan bo'lsa, endi shahar iqtisodiyoti ham muhim iste'molchiga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, suv kelajakda infratuzilma masalasiga ham aylanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning keyingi bosqichida suv tarmoqlarining sifati yo'llar yoki elektr tarmoqlari kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki investitsiyalar faqat mehnat resurslari yoxud soliq imtiyozlariga qarab kelmaydi. Investorlar resurslar barqarorligiga ham e'tibor beradi.

O'zbekistonda suv xo'jaligini raqamlashtirish, hisobga olish tizimlarini takomillashtirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tiborni aynan shu nuqtayi nazardan baholash mumkin. Bu jarayon ko'pincha texnik islohot sifatida ko'riladi, vaholanki, uning zamirida iqtisodiy mantiq yotadi. Qaysi sohada resurs aniq hisobga olinsa, o'sha yerda samaradorlik ortadi.

Bugun mintaqa oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham shu — suvni tabiat bergan bepul ne'mat emas, balki strategik kapital sifatida qabul qilish. Chunki kelajakda iqtisodiy barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik muvozanat aynan shu resursdan qay darajada oqilona foydalanishga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda, suv haqidagi bahslar aslida kelajak xususidagi bahslardir. To'g'ri, neft konlari bir kuni tugashi mumkin, gaz zaxiralari ham cheklangan, ammo suvsiz sivilizatsiyaning o'zi mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun ham XXI asrda har bir tomchining qiymati ortib boradi.

Musulmon ZIYO



SUVNING YANGI

GEOSIYOSATI:

QOIDALAR O'ZGARMOQDA

Markaziy Osiyoda suv masalasi uzoq yillar asosan ekologik muammo sifatida qabul qilindi. Bugun esa vaziyat o'zgardi: endi suv nafaqat tabiiy resurs, balki tashqi siyosat, iqtisodiy barqarorlik va mintaqaviy munosabatlarni belgilab berayotgan strategik omilga aylanmoqda. Shu ma'noda mintaqa yangi bosqichga qadam qo'ydi: bu bosqichda suv miqdori emas, uni boshqarish qoidalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Odatda suv va energetika alohida sohalar sifatida ko'riladi. Vaholanki, Markaziy Osiyoda ular bir-biridan ajralmas tizim hisoblanadi. Yuqori oqimda joylashgan davlatlar uchun suv gidroenergetika manbasi bo'lsa, quyi oqimdagi mamlakatlar uchun u qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligining asosidir. Shuning uchun har qanday suv siyosati avtomatik ravishda energetika siyosatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Kam muhokama qilinadigan yana bir masala — suv infratuzilmasining

bu darajada O'zbekiston bilan bog'liq. Shuning uchun ham mamlakatning suv sohasidagi har bir qarori milliy darajadan chiqib, mintaqaviy ahamiyat kasb etadi.

Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda suv, iqlim hamda «yashil iqtisodiyot» mavzulariga bag'ishlangan xalqaro forumlar ko'paygani ham bejiz emas, ular ortida kattaroq jarayon yotibdi. Markaziy Osiyo endi suv muammosini nafaqat texnik yoki ekologik masala, balki mintaqaning umumiy kelajagini belgilovchi omil sifatida ko'ra boshladi.

SUVNING HAQIQIY NARXI:

IQTISODIYOT

KO'RMAYOTGAN RESURS

Dunyo iqtisodiyoti haqida gap ketganda odatda neft, gaz, oltin yoki raqamli texnologiyalar tilga olinadi. Suv esa ko'p hollarda tabiiy ne'mat sifatida qabul qilinadi, uning qiymati haqida faqat tanqislik yuzaga kelsa o'ylanadi. Vaholanki, iqtisodchilar keyingi yillarda

Bolaning begonasi bo'lmaydi

MEHRGA ZOR, QAHRDAN BEZOR QILMAYLIK

Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida hayotda og'ir vaziyatga tushib qolgan, nazoratsiz yoki huquqbuzarlikka moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar vaqtincha tarbiyalanadi. Ularning aksariyati 14–17 yoshdagi o'smirlar. Bu davr esa inson hayotida eng nozik va burilishli bosqich hisoblanadi. Shu bois, markaz mas'ullari tomonidan ular bilan ishlashda o'ziga xos individual va boshqa samarali usullardan foydalanilmoqda.

Ular orasida ona mehriга zorlar, ota qahridan bezorlar, kunlik janjaldan ozor chekkanlardan tortib, vaqtincha o'qimaydigan, profilaktik hisobda turganlargacha bor. Ayrimlari alamzada, ba'zilari shafqatsiz, yana birlari tez ulg'ayganidan hayotdan erta sovib, hatto jinoyat ko'chasiга kirish eshigini izlab yurgan norasidalar. Shu bois biz avvalo ular bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazib, mavjud sabab va holatga qarab tarbiyaviy chora-tadbirlar rejasini tuzamiz. Ta'lim, tarbiya bilan birga, psixologik yordam ko'rsatamiz.

Markaz faoliyatida bolalar mansub oilalar bilan ishlash muhim ahamiyat

kasb etadi. Inspektor-psixologlarimizning bolalarning oilaviy turmush tarzini o'rganib, muhitni sog'lomlashtirish, nizolarni bartaraf etish hamda ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalshga oshirishmoqda. Natijada 83 nafar voyaga yetmagan bolaning psixologik holati yaxshilanishiga erishildi. 2 nafar ijtimoiy og'ir ahvolda qolgan bola oilasiga qaytarildi.

Qiz bolalar esa Jizzax shahridagi «Ishga marhamat» monomarkazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan IT-texnologiyalar, sartareshlik, qandolatchilik va chevar-



lik yo'nalishlaridagi kurslarda o'qitilmoqda.

Tajribamda ko'ryapmanki, bu sohada ayol xodimlar ko'proq ishlashi ijobiy natijalarga erishishda yaxshi samara beryapti. Negaki, ular nizoli vaziyatlarni hal qilishda ishonitirish, tushuntirish, vaziyatni yumshatish qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, markazga olib kelingan har bir bolada ular bilan ichki

ishlar xodimi emas, balki ayollik mehriini bera oluvchi inson tarbiyaviy ish olib borayotgandek tasavvur paydo qiladi. Bu esa ular xulqida ijobiy o'zgarish paydo bo'lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiatimiz kelajagi har bir bolaning taqdiriga bog'liq ekan, har birimiz og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan, nazoratsiz yoki huquqbuzarlik-

ka moyil bo'lgan voyaga yetmaganlarni begona tutmaylik. Ularning oila a'zolariga esa «Bolangizni ona mehriга zor, ota qahridan bezor qilmang», degim keladi.

Malika SAIDOVA,
Jizzax viloyati IIB
Voyaga yetmaganlarga
ijtimoiy-huquqiy
yordam ko'rsatish
markazi boshlig'i,
mayor.

Yangi O'zbekiston yoshlari — yurt tayanchi

YUKSAK
MARRALAR SARI

IIV huzuridagi JIED Birinchi mintaqaviy hudud 48-son manzil koloniyasi jismoniy va jangovar tayyorgarlik guruhi katta inspektori, leytenant Eldor O'ktamov Toshkent viloyatining Parkent tumanida, purviqor tog'lar bag'rida ulg'aygan. Bu yigitning irodasi va saboti ham mag'rur qoyalar yanglig' mustahkam.



— Men «Toshturma»da jazo o'tagan paytimda Eldor ishga yaqinda kirgan yoshgina yigitcha edi, — deydi sobiq mahkumlardan biri. — Avvaliga uning

gaplariga parvo qilma-gandik. Ammo bora-bora fikrlashi, jonkuyarligi, ma'nili gap-so'zlari bizni o'ylantirib qo'ydi. Ko'p o'tmay hamma bilan samimiy munosabatda bo'lishi, tartibsizlikka murosasizligi, qoidalarga rioya qilgan, namunali mahkumlarni qo'llab-quvvatlashi bilan mehrimizni, hurmatimizni qozondi. Bu kabi fidoyi xodimlar qan-

cha ko'p bo'lsa, odamlarning tizimga ishonchi shuncha ortadi.

«General bo'lishni orzu qilmagan askar — askar emas» deyishadi.



Lavhamiz qahramoni ham shu naqlga amal qilib, IIV Malaka oshirish institutida o'qib, ofitserlik unvoniga sazovor bo'ldi. Hozirda koloniya xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirish yo'lida tinmay izlanyapti. Shaxsiy tarkib o'rtasida arqon tortish, tosh ko'tarish kabi sport turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etyapti. Yaqinda muassasa boshlig'i kubogi uchun futbol bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar ham ko'pchilikka manzur bo'ldi.

— Eldor O'ktamov ana shunday jonkuyar o'g'lon, — deydi muassasa boshlig'ining o'rinbosari, kapitan Javlon Niyozov. — Uni doim boshqa yosh xodimlarga o'rnak qilib ko'rsataman. Agar hamma shunday intiluvchan bo'lsa, xizmatda yanada ijobiy natijalarga erishamiz. Eldorning maqtovga loyiq yana bir jihati — kitob o'qishni yaxshi ko'radi.

Inomjon RAHIMXO'JAYEV,
mayor.



Imtiyoz va imkoniyat



Bu bejiz emas. Dilnura botaligidan otasining ichki ishlar organlaridagi faoliyatiga guvoh bo'lib ulg'aydi. Bayram kunlari ham, tunlari ham xizmatga otlangan otaning yagona maqsadi el osoyishtaligi va xavfsizligini ta'minlash edi. Qiz har gal otasining xizmat libosiga havas bilan

boqarkan, bu kasb ortida qanchalik yuksak mas'uliyat va jasorat mujassamligini his qilardi.

Samarqand viloyati IIB JXX HPB muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, podpolkovnik Nurnazar Tilavovning to'ng'ich qizi Mohinur o'tgan yili imtiyozli tavsiyanoma asosida SamDU huquqshunoslik

EZGU YO'LNING BOSHLANISHI

Dilnura bu yil Samarqand shahridagi 63-umumta'lim maktabining 11-sinfini tamomladi. Fan olimpiadalaridagi ishtiroki, kitobxonlikka mehri va huquqiy bilimlarga bo'lgan qiziqishi kelajakdagi kasbini aniq belgilab berdi – u huquqshunoslik yo'nalishini tanladi.

fakultetiga davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilingan edi. Bu yil ikkinchi qizi Dilnura ham imtiyozli tavsiyanoma sohibasi bo'ldi. Unga ushbu hujjat otasining sohadagi halol va vijdonan qilgan xizmatlari munosabati bilan qonunchilikda belgilangan tartibda berildi.

– Bu tavsiyanoma men uchun tayyor kelajak emas, aksincha, o'z ustimda yanada ko'proq ishlashga undaydigan mas'uliyatdir. Bildirilgan ishonchni yuksak bilim bilan oqlashim kerak, – deydi Dilnura Ernazarova.

U yaxshi biladiki, imtiyoz imkoniyat eshiklarini ochishi mumkin, ammo kelajak faqat bilim, mehnat va halollik bilan quriladi. Shu bois oliy o'quv yurtiga o'qishga

kirib, sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishni maqsad qilgan. U ingliz tilidan sertifikatga ham ega.

Ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari uchun yaratilgan bunday imkoniyatlar yosh avlod qalbida vatanparvarlik va sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, ushbu imkoniyatdan foydalanayotgan har bir yigit-qiz uning zamirida otalarining mashaqqatli mehnati va jasorati yotganini teran his etmoqda. Dilnuraning dadil qadami esa ana shu ezgu yo'lning boshlanishidir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Falokat oyoq ostida

Uzoq manzilni ko'zlab yo'lga chiqqan haydovchilar uchun eng katta xavflardan biri charchoqdir. Ko'pchilik bunga e'tibor bermay, manzilga tezroq yetib olish ilinjida mashinani boshqarishda davom etadi. Biroq inson organizmining tabiiy ehtiyoji bo'lgan uyqu va dam olishga beparvo munosabat ba'zan og'ir fojiga sabab bo'lishi mumkin. Tahlillarga ko'ra, o'lim bilan yakunlangan yo'l-transport hodisalarining qariyb 25 foizi haydovchining rulda uxlab qolishi tufayli sodir bo'lgan.

Birgina Navoiy viloyatida joriy yil boshidan buyon mashinani boshqarayotgan shaxsning uxlab qolishi bilan bog'liq 10 ta yo'l-transport hodisasi qayd etilgan. Ularda 3 nafar fuqaro hayotdan ko'z yumgan, 12 nafari turli darajada tan jarohati olib, shifoxonaga yotqizilgan.

Ana shunday ayanchli hodisalardan biri 10-iyun kuni Tomdi tumani hududida yuz berdi. «Cobalt» rusumli avtomashina haydovchisi ishdan so'ng charchagan holatida yo'lga chiqqan. Oqibatda rul boshqaruvida uxlab qolib, og'ir yo'l-transport hodisasi sodir etgan.

KO'Z ILINGAN SONIYA fojia yuz berishi mumkin



Shifokorlar tomonidan ko'rsatilgan tibbiy muolajalarga qaramasdan, haydovchining hayotini saqlab qolishning iloji bo'lmadi.

Bunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida Navoiy viloyati IIB JXX YHXB xodimlari keng ko'lamli profilaktik choratadbirlarni izchil amalga oshirishmoqda. Ular uzoq masofaga qatnovchi haydovchilar, transport korxonalari, korxona va tashkilotlar ishchi-xodimlari, shuningdek, aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishyapti. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda chi-

qishlar qilib, mahallalar va mehnat jamoalarida bo'lib, haydovchilarni hushyorlikka chaqirishmoqda.

Targ'ibot tadbirlarida, ayniqsa, cho'l hududlarida joylashgan uzun va bir xil manzaraga ega avtomobil yo'llarida harakatlanish o'ziga xos xavf tug'dirishi haydovchilarga uqtirilmoqda. Bunday yo'llarda ko'zning tez charchashi, diqqatning susayishi, inson organizmining bir maromdagi harakatga moslashib qolishi natijasida uyqu bosishi ehtimoli keskin ortishi tushuntirilyapti. Shuningdek, yetarlicha dam olmasdan uzoq yo'lga

chiqmaslik, har 2–3 soatda qisqa muddatli tanaffus qilish, charchoq yoki uyqu alomatlari sezilishi bilan xavfsiz joyda to'xtab dam olish, belgilangan tezlik me'yorlariga qat'iy amal qilish tavsiya etilmoqda.

Avtomobil yo'llarida ham xavfsizlik choralari bosqichma-bosqich kuchaytirilmoqda. Xususan, yo'l-transport hodisalariga ko'p kuzatiladigan va xavfli hisoblangan uchastkalarda tezlikni cheklovchi yo'l belgilari o'rnatilyapti, qo'shimcha ogohlantiruvchi belgilar hamda yo'l chiziqlari yangilanyapti. Haydovchilarning diqqatini oshirishga xizmat qiluvchi texnik vositalarni joylashtirish ishlari ham izchil davom ettirilmoqda.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, ko'plab yo'l-transport hodisalarining oldini olish mumkin. Buning uchun har bir haydovchilar qoidalariga qat'iy rioya etishi, yo'lga chiqishdan oldin o'z salomatligi va holatini to'g'ri baholashi, charchoq va uyqu alomatlari sezilganda harakatni davom ettirmasligi, dam olishi lozim. Shunda ular biroz kechroq bo'lsa-da sog'-salomat manziliga yetadi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Namangan viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazining kichik bir xonasidagi stol ustida mikroskop, turli kimyoviy kukunlar va inson ko'zi ilg'ashi qiyin bo'lgan qop-qora chiziqlar aks etgan suratlar...

Kapitan Sardorbek Dadaboyevning nigohlari toliqqan bo'lsa-da, nihoyatda sinchkov. U odamlar «barmoq izi» deb ataydigan, aslida esa tabiatning eng mukammal va sirli asari bo'lgan papilyar naqshlarni o'rganmoqda. Sardorbek uchun bu ko'rinmas haqiqatlarni yuzaga chiqarish, adolatning tilsiz guvohlarini so'zlatish san'atidir.

Tilsiz guvohlar so'zlaganda

2026-yil 24-may. Norin dehqon bozori. Kun ayni qizigan, atrof shovqin-suron, odamlar bilan gavjum. Kutilmaganda bozordagi kiyim-kechak do'konidan kimdir moddiy boyliklarni o'g'irlab ketganini payqagan do'kon egasi T.N.ning dunyosi qorong'i bo'ldi. Darhol ichki ishlar organlariga xabar berdi. Jinoyat ishi qo'zg'atildi, ammo minglab odamlar tinmay kelib-ketadigan bozor to'olonida o'g'rini qanday topish mumkin?

Voqea joyiga kapitan S. Dadaboyev yetib keldi. Boshqalar yo'qolgan mol-dunyoning hisob-kitobi bilan band bo'lgan bir paytda Sardorbekning nigohi butunlay boshqa narsani qidirardi. U do'konning devorlariga, buzilgan peshtaxtalarga, hatto eng kichik buyumlarga xuddi jonli mavjudotga qaragandek tikildi.

Uning qo'lidagi maxsus cho'tka va kukunlar sehrli tayoqchadek ish bera boshladi. Mana, chang va shovqin orasida o'g'ri najot deb yo-

KAFTDAGI CHIZIQLAR

ALDAMAYDI



Sardorbekning bir necha soatlik mehnati, ko'z nuri va kasbiy intuitsiyasi soyada yurgan jinoyatchilarning yuzini ochgandi. Jinoyat «issiq izida» fosh etildi, o'g'irlangan ashyolar esa egasiga qaytarildi.

Chiziqlar ortidagi hayot

Kapitan S. Dadaboyev har gal navbatdagi jinoyat izini kesarkan, uzoq o'yga toladi. Insonni qonunni buzishga nima majbur qiladi? Sardorbek

pishgan, lekin o'zi sezmay qoldirgan ko'zga ko'rinmas ikki-uchta iz yuzaga chiqdi. Sardorbek ularni xuddi noyob gavhardek ehtiyotkorlik bilan qog'ozga ko'chirdi. Bu hali g'alaba emas, boryo'g'i qorong'ilikdagi birinchi nur edi.

Sirli yechim

Laboratoriyaga qaytib, izlarni Avtomatlashtirilgan shaxsni identifikatsiya qilish tizimiga kiritarkan, kompyuter ekranida millionlab barmoq naqshlari zanjirdek aylana boshladi. Birdan ekranda qizil chiroq yonib, tizim ikkita ismni chiqarib berdi: biri uchqo'rg'onlik A.O., ikkinchisi esa norinlik A.G.

bu savolga javobni jinoyatchilarning ko'zidan emas, ular qoldirgan chiziqlardan izlaydi. Chunki inson aldashi, tonishi, yolg'on gapirishi mumkin, ammo uning barmoq uchidagi naqshlar hech qachon yolg'on gapirmaydi.

Qahramonimiz uchun oliy mukofot – adolat qaror topgan soniyalardagi xotirjamlik. Safdoshlari orasida haqiqiy kasb fidoyisi sifatida hurmat qozongan Sardorbek kabi xodimlar bor ekan, tunlar osoyishta, kunduzlar esa xavfsiz bo'lib qolaveradi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

IZLAR IZLARNI IZLAR...

Shahrisabz tumani IIB navbatchilik qismiga «Duxchi» mahallasida yashovchi fuqaro Gulhayo Boboqulovadan qo'ng'iroq bo'ldi. U uyidan 20 million so'm pul o'g'irlanganini ma'lum qildi. Tergov-tezkor guruhi hodisa joyiga yo'l oldi.

Hodisa joyi sinchkovlik bilan ko'zdan kechirildi. Xonadon mehmonxonasining kirish eshigi, titib tashlangan sandiqdagi buyumlar, tutqichlar, deraza romlari va gumondor harakatlanishi mumkin bo'lgan barcha nuqtalar maxsus kriminalistik vositalar yordamida tekshirildi. Natijada oddiy ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan barmoq izlari va boshqa ashyoviy dalillar aniqlanib, belgilangan tartibda olindi.

Guruh tarkibidagi tuman IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, kapitan Sardor Amonov dalillarni zamonaviy kriminalistik usullar asosida chuqur tadqiq etdi. Har bir iz, belgining diqqat bilan o'rganilishi tergov uchun muhim ma'lumotlarni yuzaga chiqardi va jinoyatchining shaxsini aniqlash imkonini berdi.

Ekspert xulosalari va tergov-tezkor guruhining muvofiqlashtirilgan harakatlari natijasida jinoyat tez fursatda fosh qilindi. O'g'rilikni shu tumanda yashovchi fuqaro S.J. sodir etgani ma'lum bo'ldi. O'g'irlangan mablag'ning bir qismi egasiga qaytarildi, aybdor qonun oldida javob berdi.

– Bu kabi holatlar jinoyatni fosh etishda faqat tezkor harakatning o'zi yetarli

emasligini ko'rsatadi, – deydi kapitan Sardor Amonov. – Ilmiy yondashuv, puxta tahlil va ekspertning professional mahorati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, oddiy inson ko'zi ilg'amaydigan izlar haqiqatga eltuvchi eng ishonchli dalildir.

Joriy yilning o'tgan davrida qahramonimiz tomonidan 147 marta voqea joyiga chiqilib, jinoyatlarni fosh qiladigan 142 ta dalil tergovchilarga taqdim etildi. Bundan tashqari, u 37 marta hamkorlikdagi tergov harakati va tezkor-qidiruv tadbirlarida qatnashdi.

Darvoqe, kapitan Sardor Amonov ichki ishlar organlaridagi to'qqiz yillik faoliyati davomida ustoz – viloyat IIB EKM bosh eksperti, podpolkovnik Sanjar Maxmadiyorovdan olgan o'gitlari va tajribasini amaliyotda qo'llab, mana shunday yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Постановление и его исполнение

ПРАВА ЧЕЛОВЕКА – ВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ



В Самарканде состоялся семинар-тренинг для инспекторов профилактики на тему «Международные стандарты в области прав человека и национальное законодательство». Организаторами мероприятия выступили Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, Министерство внутренних дел, Уполномоченный Олий Мажлиса по правам ребенка (Детский омбудсман). Семинар прошел в рамках выполнения Постановления Кабинета Министров от 3 марта 2026 года «О мерах по реализации пятого этапа Всемирной программы образования в области прав человека в Республике Узбекистан».



К проведению тренинга были привлечены авторитетные ученые и эксперты, обладающие богатым практическим опытом в сфере международного и национального права.

Выступая перед участниками, директор Национального центра по правам человека академик Акмал Саидов подчеркнул, что ключевая

задача таких встреч – углубить знания сотрудников ОВД о стандартах защиты прав граждан, освоить современные

подходы к предупреждению правонарушений.

В ходе практических сессий были детально проанализированы по-

ручения Президента, озвученные 29 июня 2026 года на совещании по трансформации деятельности инспекторов про-

филактики и укреплению общественной безопасности. Отмечено, что приоритетный ориентир сегодня – эффективная организация работы «ма-халлинской семерки», превращение вверенных территорий в зоны, свободные от преступности, укрепление вертикали взаимодействия «махалля – район (город) – область – республика». Отдельно эксперты остановились на вопросах воспитания у сотрудников правоохранительных органов неукоснительного уважения к правам и свободам человека, рассмотрели основные конституционные гарантии защиты прав граждан, а также разъяснили ход разработки нового законопроекта «О статусе инспектора профилактики органов внутренних дел».

Рафик ЕНИКЕЕВ.

Грани сотрудничества

КОНСТРУКТИВНЫЙ ДИАЛОГ



В рамках рабочего визита в Японию делегация МВД Республики Узбекистан изучила опыт страны в сфере оказания государственных услуг.

В состав делегации во главе с первым заместителем начальника Департамента миграции и персонализации при МВД Республики Узбекистан полковником Улугбеком Мирзакамбаровым вошли ведущие сотрудники ведомства. Специалисты ознакомились с японской системой организации государственных услуг по оформлению документов, удостоверяющих личность, посетили Центр по выдаче идентификационных карт (My Number Card) и Паспортный центр Синдзюку, где изучили современные системы управления процессами.

В ходе встреч была освещена практика организации выездного оказания государственных услуг; предоставления услуг в электронном формате, включая дистанционное оформление документов с использованием мобильных приложений; технологий изготовления идентификационных карт и их элементов защиты.

Визит прошел в формате конструктивного диалога и профессионального обмена опытом.

Фаррух НУРНАЗАРОВ,
капитан.

Противодействие торговле людьми

ПАРТНЕРСТВО РАДИ БЕЗОПАСНОСТИ

В республике продолжается информационно-профилактическая акция «30 дней в партнерстве против торговли людьми», приуроченная к 30 июля – Всемирному дню борьбы с торговлей людьми. Она проходит под эгидой Национальной комиссии по вопросам противодействия торговле людьми и достойного труда, МВД, МИД, Министерства занятости и сокращения бедности, институтов гражданского общества.

Эстафету мероприятий активно подхватили регионы.

В Гулистане при активном участии представителей Сырдарьинского отделения Республиканского социально-информационного центра «Istiqbolli Avlod» проходят встречи с населением, направленные на повышение правовой грамотности. В фокусе внимания «точки риска»: в центрах временного

обеспечения работой, объектах транспортной инфраструктуры распространяются буклеты с контактами горячих линий.

Правоохранители и общественники подчеркивают: лишь объединив усилия, можно поставить заслон преступному бизнесу на человеческих судьбах.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.



► **Interethnic harmony****A BOND THAT UNITES HEARTS**

Friendship is a great value that connects hearts and brings nations closer together. In Uzbekistan, strengthening interethnic and interfaith harmony and educating the younger generation in the spirit of tolerance, respect for national and universal values, and patriotism are among the priorities of state policy.

In accordance with our Constitution and laws, all citizens of our country are guaranteed equal rights

and freedoms regardless of their nationality, language, or religion. More than 130 ethnic groups and nationalities living in Uzbekistan are provided with all the necessary conditions to preserve and develop their culture, customs, and traditions.

At the initiative of our head of state, 30 July has been widely celebrated as the Day of friendship of nations. On this occasion, the traditional «Friendship festival» will be

held throughout the country from 23 to 31 July this year.

As part of the festival, various spiritual, educational, scientific, and practical events will be organized in Tashkent city and all regions of the republic. To ensure public safety and maintain public order during the celebrations, personnel of the Ministry of internal affairs, the National Guard, the Ministry of emergency situations, and medical workers will provide round-the-clock duty services.

► **Dedication to the profession****THE RESPONSIBILITY BEHIND THE FRAME**

Captain Nodirbek Boltaboyev, chief specialist of the Information group of the Guarding service under the Khorezm regional DIA, has for many years been providing timely and objective coverage of the dedicated service of the Guarding service personnel. He regularly reports on security operations at protected facilities, night duty shifts, training and drill exercises, as well as preventive and public awareness activities.

Captain Nodirbek Boltaboyev's effective service has received well-deserved recognition. He won the «Best leader of a primary organization» competition held among leaders of primary organizations in military units and was awarded the Khorezm regional Hokim's Certificate of appreciation. In addition he was awarded the «O'zbekiston Belgisi» («Symbol of Uzbekistan») breast badge in recognition of his many years of distinguished service.



This high recognition is not only an honor for captain Nodirbek Boltaboyev but also a symbol of the great responsibility he bears in continuing to provide truthful and objective coverage of the dedicated service of the Guarding service personnel.

► **Public safety****PEACE IN THE MAHALLA – PEACE IN THE NATION**

Dustlik mahalla in Bekobod city has become a place where development and public safety go hand in hand. During his visit to Bekobod city on 13 July this year, the President closely reviewed the ongoing development projects being carried out in the mahalla.

Established in 1994, Dustlik mahalla covers an area of 28.4 hectares. It is home to more than 4,300 residents, with over 1,400 families living in 33 apartment buildings. The mahalla is home to 45 business entities, while its educational and service institutions contribute to the well-being of its residents.

Lieutenant Abbas Mullajonov, prevention inspector of the

Crime prevention unit of the public safety service of the Bekobod city DIA, Third regional sector of the main DIA of Tashkent region, has made a noteworthy contribution to maintaining peace and public order in the mahalla. After graduating from the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan in 2025, he began his service in the mahalla and has been carrying out his duties with dedication.

Within the framework of the «Social prevention» system, targeted measures are being implemented for more than 90 citizens. Regular preventive, explanatory, and social rehabili-

tation activities are conducted with individuals under probation supervision, those registered for preventive monitoring, previously convicted persons, and individuals struggling with alcohol abuse. In addition, 42 surveillance cameras installed throughout the area play an important role in maintaining public order and preventing offences.

The positive changes taking place in Dustlik mahalla are a vivid example of the reforms being implemented in New Uzbekistan to uphold human dignity, improve people's well-being, and ensure a safe, prosperous, and peaceful life for all.

► **Dedicated to service****RECOGNIZED INSPECTOR**

Captain Odil Jabborov, a prevention inspector of the Crime prevention department of Termez city DIA, has



been serving effectively since 2020, ensuring peace and public safety in local communities and preventing offences.

He carried out targeted measures in Guliston mahalla of Termez city, which had remained in the «red» category for three years due to its high crime rate, working closely with 93 high-risk households. As a result, 84 citizens secured permanent employment, 16 people were provided with jobs, and six troubled families were reconciled. In addition, more than 200 surveillance cameras installed by Termez city hokimiyat were integrated into the prevention inspector's office.

Thanks to these systematic measures, Guliston mahalla was reclassified as a «green» area. Odil Jabborov's dedicated service received high recognition from the President. At a videoconference meeting chaired by the head of state, he was awarded the special rank of captain ahead of schedule. The rank was ceremonially presented by the hakim of Surkhandarya region.

At present, Odil Jabborov is pursuing his studies at the correspondence division of the Academy of the Ministry of internal affairs.

Translated by Munawwar RASHIDOVA, docent.



www.youtube.com/@Postda_IV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Voqeiy hikoya

«KO'ZING O'YILSIN, GULTUVAK!»

Bolaligimda yulduzlar faqat osmonda emas, uyimizda ham yashardi. Dadam har tong dazmollangan ko'k formasini kiyib, oynaga qarshi tugmalarini birma-bir qadardi. Men esa stol ustiga chiqib olardim-da, yelkasidagi tillarang yulduzlarni sanab chiqardim:

– Bir, ikki, uch, to'rt...

Ular oddiy yulduzlar emas, dadamning faxri, g'ururi, kuchi va sha'ni edi. Bolalarcha dunyoqarashim bilan buvimning gaplariga ishonardim:

– Yelkasida yulduzi bor xodimlar hech qachon yomon bo'lmaydi. Ular dunyodagi eng yaxshi insonlar!

Dadam har kuni ishga ketayotganida odatdagidek egilib peshonamdan o'pard:

– Yaxshi o'qi, qizim!

Yugurgancha dadamning ortidan chiqib, formaning ko'k rangi ko'chamiz boshida ko'rinmay qolguncha qarab turardim.

Men uchun hovlimiz gullar mamlakati edi. Onam bilan buvim gullarni tirik jonotdek yaxshi ko'rishardi. Har faslning o'z guli, har gulning o'z nafasi bor edi. Bir kuni men ham ularga ergashdim. Kichkina sopol gultuvakka nihol o'tqazdim. Har tong unga suv berib, barglarini



sezdim. Yuragim hapriqib ketdi. Keyin esa cho'kkalab o'tirgan buvimning yig'isi qulog'imga chalindi:

– Bu kunlarni ko'rguncha, o'lib qo'ya qolsam bo'lmasmidi! Bitta o'g'il deb borimni berdim, otasiz hech kimdan kam qilmadim! Qaysi gunohim uchun Xudo jazoyimni berdi... Ko'zing o'yilsin, gultuvak! Ko'zginang o'yilsin!

Onam ham hovli o'rtasida dod solib yig'lardi. U o'rnidan amallab turdi-da, birin-ketin gullarni sug'urib, gultuvaklarni sindira boshladi. Tuproqlar sochilib, gullar oyoq ostida ezildi. Nima bo'layotganligini tushunmasdan, bir chetda yig'lab

Bolaligimda hech narsani tushunmagan ekanman. Faqat ancha vaqt o'tib, achchiq haqiqatning tagiga yetdim. Dadam xizmat xonasida pora olayotgan payti qo'lga tushgan. Bir tanishining jinoyatini yashirish evaziga undan pul talab qilib, kelishilgan pulni hech kim shubhalanmasligi uchun men sovg'a qilgan gultuvak ichidagi gullar orasida qoldirishini so'ragan. Bolalikning beg'ubor sovg'asi esa jinoyatning ashyoviy daliliga aylangan.

Erta bahorda hovlimiz chetida bir tup gul bosh ko'tardi. Na onam ekan, na buvim va na men. U o'zi unib chiqqan edi, xuddiki, umidga o'xshab... Onam uni sug'urib tashlamoqchi bo'ldi, ammo qo'li havoda muallaq qoldi. Negaki, shu payt darvozadan dadam kirib keldi... Endi uning yelkasida yulduzlar yo'q edi. Oqarib ketgan sochlari, chuqurlashgan mungli ko'zlari va yelkasidagi ko'rinmas yuk qaddini egib qo'ygandi. Kutilmagan xursandchilikdan buvim, oyim va men esankirab qoldik, birdan turgan joyimizda yig'lab yubordik. Dadamning tizzalari qaltirab, qo'qqisidan cho'kkaladi, peshonasini yerga qo'ydi. Men butun umr yodimdan chiqara olmaydigan dahshatli manzarani o'shanda ko'rdim. Dadam yig'layotgan edi. Ba'zi ko'z yoshlar shunchalik og'ir bo'lar ekanki, ular yerga emas, insonning yuragiga tomar ekan...

Bugun qayerdadir gultuvak ko'rsam, beixtiyor o'sha kunni eslayman.

Buvimning qarg'ishi yillar o'tsa hamki, qulog'im ostida jaranglaydi:

– Ko'zginang o'yilsin, gultuvak...

Yo'q, endi bilaman. Buvim aslida gultuvakni emas, INSONning ko'zini ko'r qiladigan NAFSni qarg'agan ekan...

Dilrabo ABDUHAMIDOVA,
katta leytenant.



artdim. Har oqshom pichirlab gaplashdim, go'yoki, mehr eshitgan gul tezroq ochiladigandek... Uni hech kimga bermayman, deb yurardim o'zimcha. Ammo ilk g'unchasi ochilgan kuni fikrim butunlay o'zgardi:

– Dadamga sovg'a qilaman!

Dadam gulni bag'riga bosgancha ehtiyotlab oldi:

– Xonamning eng chiroyli joyiga qo'yaman, ona qizim, – deb erkaladi. Men uchun bundan katta mukofot yo'q edi.

O'sha kuni uyga «besh» baholarim bilan a'lo kayfiyatda qaytdim. Darvozadan kirganimda hovlini bosgan sukunatni

turardim, onam va buvimdan hol so'rashga esa jur'atim yetmasdi... Keyin bildimki, aslida jazolangan gullar emas, bir oilaning ishonchi ekan! Shu voqea-dan keyin uyimizda uzoq yillar gul ekilmadi, deraza tokchalari bo'sh qoldi, hovlimiz ham fayzli rangini yo'qotdi.

Odamlar dadam haqida turlicha gapirishardi. Kimdir uni poraxo'rlikda ayblasa, yana kimdir qasamyodini buz-gandan keyin jazosini olishi kerak, deya piching qilardi. Men esa yillar davomida javobsiz savollar va iztiroblar olamida yashadim...

O'qishni tavsiya etamiz

**MUHM
QO'LLANMA**



IIV Malaka oshirish instituti Axborotnomasi mamlakatimiz huquq-tartibot tizimidagi yangilashlarni ilmiy-amaliy jihatdan asoslab beruvchi nufuzli nashrlardan biridir. Ushbu jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan yuridik, tarix, siyosat va falsafa yo'nalishlaridagi ilmiy izlanishlar natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

2022-yildan buyon muntazam chop etilayotgan jurnalning joriy yildagi 2-soni ham o'quvchilar qo'lga yetib bordi. Unda jamoat xavfsizligi, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, kiberhudud himoyasi va xalqaro hamkorlik kabi dolzarb masalalar sodda va tushunarli tilda tahlil qilingan.

Globalashuv sharoitida milliy axborot makonini xolis va sifatli kontent bilan to'ldirish davlat xavfsizligining muhim shartiga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimizda internet foydalanuvchilari 31 milliondan, ijtimoiy tarmoq faollari esa 14 milliondan oshgan. Professor Olimjon Ahmedov o'z maqolasida ayni shu omillarga to'xtalib, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda tizimda kiberxavfsizlik madaniyatini yuksaltirish asosiy vazifa ekanini ta'kidlaydi. Ayniqsa, sun'iy intellekt rivojlanayotgan davrda axborot xurujlari va manipulyatsiyalarga qarshi tizimli immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro hamkorlik yo'nalishida institut delegatsiyasining Janubiy Koreyaga qilgan xizmat safari natijalari alohida e'tiborga loyiq. KOICA granti doirasida muassasada «Simulyatsiyalashgan o'quv markazi» loyihasini rivojlantirish maqsadida Koreya politsiyasining ilg'or tajribasi o'rganildi va milliy tizimga joriy etish uchun 12 ta muhim taklif ishlab chiqildi. Ushbu takliflarga ko'ra, jamoat joylarida fuqarolarning zo'ravonlikka uchrashini sun'iy intellekt va dronlar yordamida avtomatik aniqlash rejalashtirilmoqda. Shuningdek, tezkor «112» tizimi qo'ng'iroqlarini xavflilik darajasiga qarab 5 toifaga ajratish va operator maxsus havola orqali murojaatchining telefon kamerasiga ulanib, voqea joyini jonli ko'rishi yo'lga qo'yiladi.

Nashrdagi muhim amaliy tadqiqotlardan biri Toshkent shahrining Bektemir tumani misolida bezorilik jinoyatlarining ilmiy-kriminologik tahliliga bag'ishlangan. Mualliflar – O. Ahmedov, J. Muxtorov va A. Vaxidov jinoyatlarning sodir etilish joyi, vaqti va sharoitlarini batafsil o'rganib, aniq xulosalar taqdim etgan.

Xulosa qilib aytganda, IIV Malaka oshirish instituti Axborotnomasi nafaqat ilmiy maqolalar to'plami, balki soha xodimlari o'z faoliyatida bevosita qo'llashi mumkin bo'lgan amaliy qo'llanmadir.



Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.

Qilmish-qidirmish

UXLAB, UYG'ONMAGAN BOLAJON

Xorijga ishlashga ketmoqchi bo'lgan Mastura (ism-shariflar o'zgartirildi) uch yashar o'g'lini, bir-ikki yil avval opasining farzandiga enagalik qilgan Sohibaga qoldirmoqchi bo'ldi. Albatta, Anvar harna oilaga yordam bo'ladi, deb ayoliga ruxsat beradi...

Joriy yil mart oyining o'rtalari edi. Anvar ishdan kech qaytdi. Aksiga olib, ayoli kichik farzandi hamda qaramog'iga olgan Jamshidni qaynisiga tashlab, onasinikiga ketgan edi. U ham shuni kutib turgan ekanmi, Anvar ishdan kelishi bilan oq bolalarni unga tashlab xonadan chiqib ketdi.

Bola Anvarning ishdan charchab kelganini qaydan ham bilsin? To'satdan baland ovozda yig'lay boshladi. Jim bo'l, degan sari, Jamshidning ovozi yanayam balandlashadi. Anvar bolani tinchlantirish o'r-

niga, jahlg'a berilib, tanasining turli qismlariga musht bilan bir necha marotaba kuchli zarba beradi. Taqdirga tan bergan Jamshid yig'lab-yig'lab uxlab qoladi.

Ertasi kuni uyga qaytgan Sohiba Jamshidning tanasidagi ko'kargan joylarga ko'zi tushadi. Anvar esa bu holni to'polon qilganida urishib bergani bilan izohlaydi. Shifoxonaga murojaat qilish o'rniga, uning qayt qilishni to'xtatish hamda badandagi ko'kargan joylarni ketkazish uchun dorixonaga chiqazib yuboradi.



Sohibaning muolajalariga qaramay, Anvar tomonidan yetkazilgan «qorinning yopiq jarohati, ingichka ichakning yorilishi hamda qon quyilishi, bosh, yuz, ikkala yelka, qorin, ko'krak qafasi sohalarida qontalash» jarohatlarni olgan bola soat 11:00 da uyquga

yotgancha qayta uyg'onmaydi.

Ushbu jinoyatdan bir haqiqatni anglashimiz mumkin, bolani o'zga shaxslarga qoldirish masalasida jiddiy nazorat va mas'uliyat talab etiladi. Ota-ona, qarindosh, qo'shni yoki tanishi – u kim

bo'lishidan qat'i nazar, bola topshirilayotgan muhit xavfsizmi, u yerdagi shaxslar ruhiy jihatdan barqarormi, bolaga nisbatan munosabati qanday, bularning barchasi o'ylab ko'rilishi shart. Bolani ishonchli odamlarga qoldirishning o'zi yetarli emas, ishonch ham nazorat bilan mustahkamlanishi darkor.

Albatta, qonun bunday qilmish uchun qattiq jazolaydi. Ayniqsa, oqiz ahvolda qolgan, kichik yoshdagi bolaga nisbatan sodir etgan og'ir tan jarohati uning o'limiga sabab bo'lgani uchun Anvar qonun oldida javob berishi aniq.

Behruzbek TOJIYEV,
katta leytenant.
Go'zal JAFAROVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Jinoyatga jazo muqarrar

Rashk ortidagi fojia

Oilani muhabbat asraydi. Uni saqlab qoladigan yagona kuch – ishonchdir. Ishonch yo'qolganda, uning o'rnini shubha egallaydi. Shunda eng samimiy tuyg'ular ham sinovga duch keladi. Afsuski, ba'zan birgina gumon butun oilaning taqdirini o'zgartirib yuboradi.



Izboskan tumanida yashovchi Gulbahor va Dilshodbek Akbarovlar (ism-shariflar o'zgartirildi) ham baxtli oila qurishgandi. To'rt yil ichida ikki nafar qizli bo'lishdi, kelajak uchun katta rejalar tuzishdi. Ammo tirikchilik tashvishlari oila boshlig'ini Rossiya Federatsiyasiga ishlash uchun ketishga majbur qildi.

U oilasini nazoratsiz qoldirishni istamadi. Shu bois turmush o'rtog'ining «Telegram» ijtimoiy tarmog'iga ulanib, uning har kungi faoliyatini kuzatib bordi. Bu tasodifiy qaror emasdi — uning bunday ehtiyotkorligi ortida o'tmishda yuz bergan, xotirasida hanuz o'chmagan bir voqea turardi.

To'y arafasida Vohidjon Ne'matov ismli yigit Dilshodbekning oldiga kelib,

Gulbahorni sevishini, unga uylanish niyati borligini bildirgan, hatto to'yni to'xtatishni ham so'ragandi. Dilshodbek vaqt o'tishi bilan bu voqea unutiladi, degan umidda oila qurdi.

Kunlarning birida u oilasi bilan videomuloqot qildi. Ikki qizchasi va turmush o'rtog'i bilan yarim soatga suhbatlashgach, kutilmaganda savol berdi:

— Nega meni «Telegram»dan o'chirib yubording?

Gulbahor hayrat bilan javob qildi: — Yo'q, o'chirib yubormaganman. Balki qandaydir texnik nosozlik bo'lgandir.

Shu voqeadan keyin uning qalbida shubha uyg'ondi. Dilshodbek yana «Telegram» orqali nazorat qilish imkoniyati

tini tikladi, biroq yozishmalar o'chirilgan edi. Telefon faoliyatini kuzatarkan, bir oy davomida yetti yuzdan ortiq SMS xabar yuborilganini ko'rib hayratda qoldi. Keyin qo'ng'iroqlar ro'yxatini tekshirdi. Raqamlardan biri uning diqqatini tortdi: «Bu Vohidning raqami emasmi?» degan o'y xayolidan o'tdi.

Tekshiruv uning shubhasini yanada kuchaytirdi. Raqam haqiqatan ham, Vohidjon Ne'matovga tegishli ekan. Shundan so'ng gumonni haqiqat sifatida qabul qildi.

Navbatdagi telefon muloqotida u turmush o'rtog'idan uyni tark etishni talab qildi. Gulbahor qancha tushuntirishga harakat qilmasin, Vohid bilan hech qanday aloqasi yo'qligini aytmasin, er uni eshitishni istamadi. Shu

tariqa, ishonch va shubha o'rtasidagi kurashda shubha ustun keldi.

Keyin voqealar tez suratda rivojlandi. G'azab, alam va ruhiy bosim ta'sirida qolgan ayol og'ir ruhiy holatga tushdi. Oqibatda fojiali qaror qabul qilindi: videomuloqot chog'ida u ikki nafar qizining tomog'iga pichoq qadadi. O'z zurriyodlarining qotiliga aylangan ona shu zahoti o'zining ham bo'yniga tig'ni botirdi. Ammo o'lma-di... Chunki bu dunyoda beradigan so'roq-savoli qolgan edi...

Sud hukmi bilan unga 13 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Biroq bu hukm ikki qizaloqning hayotini qaytara olmaydi. U na ona qalbidagi pushaymonlikni, na otaning umrbod dardini yengillata oladi. Bu fojiada aniq g'olib yo'q.

— Ko'pchilik bunday voqealarda aybni faqat bir tomondan izlashga urinishadi, — deydi ruhshunos Vazira Asliddinova. — Aslida muammo bir kunda paydo bo'lmaydi. Eng katta muammo — o'zaro ishonchning yo'qolishidir. Dalilsiz shubha, doimiy nazorat va bosim inson ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq bu hech qachon farzandlarga nisbatan zo'rvonlikni oqlamaydi: bolalar hayoti har qanday holatda ham, daxlsiz qadriyat bo'lib qoladi. Shuningdek, er-xotin o'rtasidagi muammoni muloqot va mutaxassis yordami orqali hal etish mumkin edi. Afsuski, bu oilada his-tuyg'ular aql ustidan g'olib keldi.

Bu fojia yana bir bor eslatadi: oila ishonch bilan yashaydi. Ishonch o'rnini shubha egallasa, muhabbat ham, baxt ham, kelajak ham xavf ostida qoladi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Muqaddas qadamjolar

SIRLI, SO' LIM VA SHIFOBAXSH

Surxondaryo vohasining tarixiy qadamjolaridan biri – Xo'jaipok ziyoratgohi Oltinsoy tumanida, xushmanzara tog' yonbag'rida joylashgan bo'lib, asrlar davomida nafaqat ziyoratchilarni, balki o'z bag'riga yashirgan sinoatlari bilan tabiat ixlosmandlari va tadqiqotchilarni ham hayratga solib keladi.

«Xo'ja» so'zi fors tilidan tarjima qilinganda «obro'-e'tiborli kishi», «sohib», «faxriy inson» ma'nolarini anglatadi. Markaziy Osiyo hududida XX asr boshlariga qadar bu unvon payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) avlodlariga yoki ularning nasliga mansubligini da'vo qilgan izzatli shaxslarga nisbatan qo'llanilgan. Ayrim tarixiy manbalarda esa xo'jalar arablarning ilk fath yurishlariga boshchilik qilgan sarkardalarning avlodlari sifatida ham tilga olinadi.

Ziyoratgoh hududidagi g'or ichiga tushilganda, u yerda joylashgan qadimiy qabr ko'zga tashlanadi. Mahalliy aholi bu qabrga Xo'jaipok otaning singlisi Bibizaynab dafn etilgan deb hisoblaydi.

G'orning tepa qismida esa yana bir ramziy qabr mavjud bo'lib, u xalq orasida sahoba Abdurahmon ibn Avf nomi bilan bog'lanadi. Islom tarixida Abdurahmon ibn Avf «Asharai mubashshara», ya'ni hayotlik davridayoq jannat bashorati berilgan o'n ulug' sahobaning biri sifatida e'tirof etilgan. Biroq tarixiy manbalarda sahobaning Markaziy Osiyoga kelgani haqida ma'lumot uchramaydi. Shu sababli tadqiqotchilar ushbu qabrni ramziy qadamjo sifatida baholaydi. Bu kabi sahobalar nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar yurtimizning boshqa hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Jizzax viloyatlarida

hamda Surxondaryoning Angor tumanida ham uchraydi.

Ziyoratgohning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri tog' bag'ridan o'tilib chiqadigan shifobaxsh suv manbayidir. Bu suv tog' oralab bir necha chaqirim masofaga oqib o'tib, mahalliy Tentakdaryoga borib qo'shiladi. Yer ostidan chiqayotgan ushbu kuchli suv oqimining aniq manbayi va qanday paydo bo'lishi hozirgi kungacha aniqlanmagani maskanning sirliligini yanada oshiradi.

Mutaxassislarning o'rganishlari suv tarkibida fosfor, oltingugurt, xlorid, sulfid va temir kabi inson organizmi uchun foydali bo'lgan mineral moddalar mavjudligini ko'rsatgan. Mahalliy aholi



esa ushbu ma'danli suv turli xastaliklarga, jumladan, bosh, bel va oyoq og'riqlariga, teri kasalliklari, asab xastaliklari hamda tanadagi yaralarga davo bo'lishini ta'kidlaydi.

Bugungi kunda Xo'jaipok ziyoratgohi nafaqat muqaddas qadamjo, balki ekoturizm va ziyorat turizmi uchun ham ulkan imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi. Ayniqsa, bahor va yoz fasllarida bu yerning musaffo tog' havosi,

so'lim va maftunkor tabiati hamda shifobaxsh buloqlari minglab mahalliy va xorijlik mehmonlarni o'z bag'riga chorlamoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Achchiq danak

TAROZINING IKKI PALLASI

Ba'zan hayron qolasan: nega jarrohlik amaliyotini o'tkazadigan shifokorlarga tanqidiy munosabat bildirmaymiz? Ular tanamizga tig'ursa ham, sha'niga maqtov so'zlarini ayamaymiz. Hayotimizni saqlab qoldi deb alqaymiz.

Afsuski, mohiyat jihatidan xuddi shunga monand vazifani bajaradigan YPX inspektorini esa maqtaydiganlar soni ko'p emas. Aksincha, ularni tanqid qiladiganlar talaygina! Vaholanki, u ham sizning hayotingizni saqlab qolish uchun kurashyapti-ku?! Farqi shundaki, shifokorning oldiga o'zimiz iltimos bilan boramiz, YPX inspektoridan esa iloji boricha qochishga urinamiz.

Rulni boshqarayotgan haydovchi uni salgina chapga yoki o'ngga burish, tezlikni me'yordan oshirish, chorrahadan shoshib o'tishning o'ziyoq



hayotiga zomin bo'lishini biladi. Lekin bunga hamma vaqt ham e'tibor beravermaydi. Aksariyat hollarda, mana shunday paytda uning yo'lidan chiqqan inspektorga esa e'tiroz bildirishga urinadi. U o'zi va boshqalar hayoti uchun kurashayotganini tan olgisi kelmaydi.

YPX xodimi jarima yoza-di. Bu, tabiiyki, hech kimga yoqmaydi. Moliyaviy holatigizga zarar keltirildi. Ammo

«jazo o'rinli bo'ldi, o'zim xato qildim», deydi mard deyarli uchramaydi. Yo'l harakati qoidasini buzish oqibati mudhish tugaganida-chi? Aytaylik, xavfsizlik kamarini taqmaslik qanday fojiali oqibatlariga olib kelishini ko'pchilik to'liq anglab yetmaydi. YTH tahlili shuni ko'rsatadiki, to'qnashuv natijasida og'ir tan jarohati olish, o'lim holatiga olib kelishlarning asosiy sababi

xavfsizlik kamarini taqmaslikdir.

Yaqinda Sirdaryoning uchta tumanida ayanchli oqibatlariga olib kelgan yo'l-transport hodisalariga doir avto-karvon namoyish qilindi. Jumladan, Xovos tumanida ham shunday tadbir bo'lib o'tdi. Majaqlanib ketgan avtomobillar aholi gavjum joylarda, shohbekatlarda odamlarga ko'rsatildi. Ushbu avtomobillar haydovchilari yo'l harakati

qoidalarini pisand qilma-gan. YPX inspektorlarining talablariga bo'ysunmagan. Natijada hayotdan erta ko'z yumgan. Mana shunday paytda odamlarni tartibga chaqirib turadigan nozirlarga ehtiyoj naqadar katta ekaniga yana bir bor amin bo'ldim. Agar ular bo'lmasa yoki haydovchilarga yanada erk berilsa, yo'llarda qanday kaos yuzaga kelishini tasavvur qildim. Bu esa kuniga o'nlab yo'l-transport hodisalari, hayoti erta tugagan o'nlab taqdirlar degani! Shu sababdan zamondoshlarimni chorrahada yomg'ir-qor, jazirama issiq demay, tartib saqlab turgan o'g'lonlarga bo'lgan munosabatni o'zgartishni so'rardim.

Chunki, har kim ham ichki ishlar xodimi bo'la olmaydi. Qalbida vatanparvarlik o'ti bor, irodali insonlarga mana shunday mashaqqatga chiday oladi.

Abdumavlon SHERNAZAROV.

Sirdaryo viloyati.

QUVONCH ORTIDAGI XAVF

Yozgi ta'til — bolalar uchun eng kutilgan fasl. Bu davrda ular ko'proq sayr qiladi, dam olish va ko'ngilochar maskanlarga bora-di. Ana shunday joylarda bolalarga eng ma'qul o'yinlardan biri — batutlar. Bolalar o'zini «O'rgimchak odam» yoki «Betmen»dek his qilib, baland-baland sakrashni yaxshi ko'radi. Ota-onalar esa buni oddiy o'yin deb qabul qiladi. Ammo bu quvonch ortida qanday xavf yashiringani haqida ham o'ylab ko'rish kerak.



Mamlakatimizda zamonaviy batut markazlari ham faoliyat yuritmoqda. Ularda tashrif buyuruvchilar maxsus

yo'riqnomadan o'tadi, trenerlar nazoratida mashq qiladi. Bir vaqtda bitta batutda faqat bir kishi sakraydi, yoshga oid

cheklovlar va xavfsizlik talablari qat'iy nazorat qilinadi. Bu kabi markazlarda jarohat xavfi sezilarli darajada kamayadi. Ammo ko'cha-ko'yda, istirohat bog'lari va sayilgohlarda o'rnatilgan ko'plab batutlarda bunday tartibni ko'rish qiyin. Aksincha, bitta batutda o'nlab bolalarning bir vaqtda sakrashi oddiy holga aylangan. Hech kim ularning og'irligi, yoshi yoki jismoniy imkoniyatini hisobga olmaydi. Natijada bir bolaning sakrashi boshqasining muvozanatini buzadi, yiqilishlar va to'qnashuvlar yuz beradi.

Shifokorlarning ogohlantirishicha, batutdagi jarohatlar oddiy lat yeyish bilan cheklanib qolmaydi. Qo'l-oyoq suyaklarining sinishi, bo'g'imlarning chiqishi, bosh va bo'yin sohasining shikastlanishi eng ko'p uchraydigan holatlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, bo'yin umurtqasi yoki orqa miya jarohatlansa, bu bolaning keyingi hayotiga jiddiy ta'sir qilishi, hatto nogironlikka sabab bo'lishi mumkin.

Yana bir e'tibordan chetda qolayotgan masala — gigiyena. Ochiq maydonlardagi batutlar muntazam va sifatli dezinfeksiya qilinmaydi. Ulardan kun davomida yuzlab bolalar foydalanadi. Bu esa turli virusli va bakterial kasalliklar

tarqalishi xavfini ham oshiradi. Ayniqsa, bolalarning qo'l gigiyenasiga har doim ham amal qilmasligi infeksiyalar yuqish ehtimolini yanada kuchaytiradi.

Albatta, batutni butunlay zararli deb baholash ham to'g'ri emas. Muammo batutning o'zida emas, balki undan foydalanish madaniyati va xavfsizlik talablariga munosabatdadir. Nazoratsiz, qoidalarsiz va mas'uliyatsiz tashkil etilgan batut maydonlari bolalar salomatligi uchun jiddiy tahdid tug'dirishi mumkin. Shu bois ota-onalar farzandining har bir quvonchi ortidagi ehtimoliy salbiy oqibatlarni ham hisobga olishi zarur. Bolani batutga chiqarishdan avval u yerda xavfsizlik qoidalariga amal qilinayotgani, bir vaqtda nechta bola sakrayotgani, nazoratchi yoki instruktor bor-yo'qligiga albatta e'tibor berish lozim. Chunki bir necha daqiqalik qiziqarli o'yin ba'zan bir umrlik pushaymonlikka aylanib qolishi mumkin. Bolalarning beg'ubor kulgusi faqat barcha ehtiyot choralarini ta'minlangan muhitdagina chin ma'noda quvonch baxsh etadi.

Adolat G'AYRAT qizi,
o'z muxbirimiz.

Bahor oylarida poytaxtdagi qator zamonaviy, shinam va konditsionerli avtobus bekatlarining buzilishi jamoatchilik orasida keng muhokama qilingan edi. Ayniqsa, ushbu bekatlardan har kuni foydalanadigan aholi va tadbirkorlar mazkur holatdan norozilik bildirib, shahar infratuzilmasidagi bu o'zgarishlarga aniqlik kiritilishini kutgandi.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Bugun esa yoz faslining eng issiq kunlari — qoq chilla payti. Kunduzi havo harorati yuqori darajaga ko'tarilib, ko'chada bir necha daqiqa turishning o'zi odam uchun jiddiy sinovga aylanmoqda. Ana shunday sharoitda jamoat transportidan foydalanuvchi yo'lovchilar, ayniqsa, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar va kichik yoshdagi bolalar uchun avtobus kutish joylarining ahamiyati yanada ortadi.

Ammo savol tug'iladi: buzilgan bekatlar o'rnida yangi, zamonaviy va qulay bekatlar barpo etildimi? Yo'lovchilar uchun quyoshdan saqlanish, o'tirish va kutish imkoniyatlari yaratildimi? Afsuski, ko'p hollarda bu savollarga ijobiy javob berish qiyin.

Xalq orasida «Yangisini qurmay turib, eskisini buzma»

JAZIRAMADA QOLGAN YO'LOVCHI yoki poytaxt bekatlariga e'tibor qachon kuchayadi?



degan hikmatli gap bor. Bu nafaqat maishiy hayotda, balki shaharsozlik va infratuzilma masalalarida ham muhim tamoyil bo'lishi kerak. Chunki har qanday o'zgarish avvalo, inson manfaatiga xizmat qilishi lozim. Agar eski obyekt o'rniga yaxshiroq sharoitga ega bo'lgan yangisi yaratilmasa, bu o'zgarish taraqqiyot emas, balki muammoning boshqa ko'rinishida davom etishiga olib keladi.

Bugun ayrim avtobus bekatlarida yo'lovchilarning eng oddiy ehtiyojlari ham to'liq ta'minlanmagan. Quyoshdan saqlanish uchun soya joylar, yomg'irli kunlarda himoyalash imkoniyati, qulay o'rindiqlar, axborot tablolari kabi elementlar hamma bekatlarda ham mavjud

emas. Borlarining ham ayrimlari texnik jihatdan talab darajasida ishlamayapti. Zamonaviy shahar faqat baland binolar va keng yo'llar bilan emas, balki aholi uchun yaratilgan kundalik qulayliklar bilan ham baholanadi. Avtobus bekatlari — bu oddiy temir- beton konstruksiya emas. U har kuni minglab insonlar foydalanadigan ijtimoiy obyektdir. Shuning uchun uning holati shahar mutasaddilarining aholiga bo'lgan munosabatini ham ko'rsatib beradi.

Oddiy misol sifatida poytaxtdagi «O'rikzor» bozori atrofida bekatlarni olish mumkin. Dam olish kunlari bu yerda odam gavjum bo'ladi: bozor-o'char qilib qaytayotgan fuqarolar, keksalar va bolali oilalar avto-

bus kutishga majbur. Ammo ular uchun yetarli soya-salqin joylar, qulay o'rindiqlar va munosib sharoitlar mavjud emas. Bunday holat «Inson manfaatini» tamoyili inson qadri va shahar qulayligi haqidagi tushunchalarga mos kelmaydi. Ayniqsa, mahallalar ichidagi ayrim bekatlarning ahvoli yanada tashvishli. Ba'zi joylarda hatto o'rindiqlar ham yo'q. Natijada yo'lovchilar isiqda yoki sovuqda tik turgan holda transport kutishga majbur bo'lmoqda.

Masalaning yana bir muhim jihati — mas'ul tashkilotlarning aholi bilan muloqoti. Shahar infratuzilmasiga oid qarorlar qabul qilinayotganda faqat loyiha va hisob-kitoblar emas, balki oddiy fuqaroning kundalik

ehtiyoji birinchi o'rinda turishi kerak.

“Balki, mas'ul tashkilot rahbarlari ba'zan xizmat avtomobilidan emas, oddiy yo'lovchi sifatida avtobusdan foydalanib ko'rishsa, bekatlardagi haqiqiy holatni yaxshiroq his qilargi edi.

Bir necha daqiqa jaziramada avtobus kutish ham muammoning naqadar dolzarb ekanini anglash uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Albatta, poytaxtda transport tizimini yaxshilash, shahar qiyofasini yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham anchagina. Biroq har qanday yangilanishning asosiy mezonini — inson uchun qulaylik yaratishdir. Shaharning tashqi ko'rinishi qanchalik zamonaviy bo'lmasin, agar aholi eng oddiy sharoitlarga muhtoj bo'lsa, bu taraqqiyot samarasi to'liq namoyon bo'lmaydi.

Eski bekatlar buzilsa, yangi barpo qilinganlarida munosib sharoitlarni yaratish, mavjud bekatlardagi shart-sharoitni yanada yaxshilash zamonaviy shahar boshqaruving asosiy talablaridan biridir.

A. FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.



MAYDONDA SHIJOATLI FAXRIYLAR

FUTBOL

Bilarmidingiz

KARTOCHKALAR TARIXI

Kartochkalar tizimini angliyalik mashhur hakam Ken Aston o'ylab topgan.

1966-yilgi Jahon chempionatining chorak finalida Angliya va Argentina



Abu KENJAYEV

terma jamoalari to'qnash keladi. O'yin davomida hakam argentinalik futbolchi Antonio Rattinni maydondan chetlashtiradi, lekin futbolchi ingliz tilini tushunmagani (yoki tushunmaslikka olgani) sababli maydonni tark etishni rad etadi. Shuningdek, tomoshabinlar va jurnalistlar ham maydonda kimga ogohlantirish berilgani va kim chetlashtirilganini aniq tushuna olishmaydi. Ushbu o'yindan so'ng Ken Aston uyga qaytayotganda svetofor oldida to'xtaydi va ajoyib g'oya keladi:

Sariq rang – diqqat, ogohlantirish.

Qizil rang – to'xtash, maydonni tark etish.

Ranglar barcha millat va til vakillari uchun bir xil va aniq tushunarli belgi edi.

FIFA bu g'oyani ma'qulladi va kartochkalar ilk bor 1970-yilda Meksikada bo'lib o'tgan Jahon chempionatida rasman qo'llanildi.



Ichki ishlar vazirligi tashabbusi bilan «Jar» sport-sog'lomlashtirish kompleksida huquqni muhofaza qilish va harbiy tuzilmalar faxriylari o'rtasida futbol bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasi bo'lib o'tmoqda.

Faxriylar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida o'tkazilayotgan musobaqada 10 ta jamoa ishtirok etmoqda.

Futbol bahslari dastlab Davlat xavfsizlik xizmati va Prezident davlat xavfsizlik xizmati faxriylaridan iborat «Jasorat» va jangchi-faxriylar va nogironlar birlashmasining «Sardor» jamoalari o'rtasida kechdi. Qizg'in kechgan bellashuvlar yakunida «Jasorat» jamoasi 5:1

hisobida g'olib bo'lgan bo'lsa, DXX Chegara qo'shinlari qo'mitasi faxriylaridan iborat «Chegarachi» va FVV faxriylarining «Qutqaruvchi» jamoalari o'rtasidagi o'yinda 1:1 hisobi qayd etildi.

Mudofaa vazirligi hamda Davlat xavfsizlik xizmati faxriylari o'rtasidagi bahs esa, 7:1 hisobida «Mudofaa» jamoasining to'liq ustunligi bilan yakunlandi.

«Jar» sport sog'lomlashtirish kompleksining kichik futbol stadionida shijoatli faxriylar o'rtasidagi futbol o'yinlari davom etmoqda. Hafta yakunida «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasi g'olib va sovrindorlarini taqdirlash rejalashtirilgan.



VOLEYBOL. MARKAZIY OSIYO CHEMPIONATI		
Sana	Vahti	Jamoalar
22-iyul	12:30	O'zbekiston 2:3 Bangladesh
23-iyul	13:00	O'zbekiston 3:2 Qozog'iston
24-iyul	13:00	O'zbekiston _ Shri-Lanka
26-iyul	13:00	Pokiston _ O'zbekiston
27-iyul	13:00	O'zbekiston _ Nepal
28-iyul	10:30	5-o'rin uchun bahs
	13:00	Yarim final
	15:30	Yarim final
29-iyul	10:30	3-o'rin uchun bahs
	13:00	FINAL

22-29-iyul kunlari Pokistonda voleybol bo'yicha erkaklar o'rtasida Markaziy Osiyo chempionati bo'lib o'tmoqda.

Ramin Babai bosh murabbiyligidagi erkaklar milliy terma jamoamizga omad va yorqin g'alabalar tilaymiz.

Yozgi ta'til

MAZMUNLI HORDIQ MASKANI

Nukus shahridagi «Turon» bolalar oromgohi serqatnov yo'llar va sanoat zonalaridan yiroq, osoyishta hamda xavfsiz hududda joylashgan. Mas-kanda sport maydonchalari, shinam oshxona, ma'naviyat xonasi va boy kutubxona mavjud. Bog'dagi mevali daraxtlar soyasi hamda yaqin atrof-dan oqib o'tuvchi «Do'stlik» kanalining salqin havosi bolalarning tabiat qo'ynida maroqli dam olishini ta'minlamoqda.

Bu yerda 7-14 yoshli o'g'il-qizlarning hordiq chiqarishi va sog'lomlashtirilishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Muassasa bir paytning o'zida 90 nafar, yoz mavsumi davomidagi 5 ta smenada esa jami 450 nafar bolani o'z bag'riga sig'dira oladi.

Ayni paytda o'g'il-qizlar ishtirokida harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, bolalar festivallari, «Zakovat» intellektual o'yinlari va sport musobaqalari o'tkazilmoqda. Bolalarning to'garaklarda yaratgan qo'l mehnatlari va rasmlaridan iborat ko'rgazmalar esa mehmonlar hamda ota-onalarda katta taassurot qoldirmoqda.



– Oromgohda bolalarning ta'tilni mazmunli o'tkazishiga shahar IIB vakillari ham munosib hissa qo'shmoqda, – deydi Nukus shahar IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi inspektori, leytenant Raushan Alimova. – Ayni paytda mas-

kanga biriktirilgan profilaktika inspektori hududda osoyishtalikni ta'minlash bilan birga, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib bormoqda. Yo'l-patrul xizmati inspektori esa yoshlarga yo'l qoidalari bo'yicha saboq berishyapti.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Kun mavzusi

HAYOTINGIZNI XATARGA QO'YMANG!

Yozning jazirama kunlarida barchamiz tabiatning so'lim va salqin go'shalari, suv bo'ylari tomon intilamiz. Ayniqsa, bolalar va yoshlar uchun cho'milish eng sevimli va zavqli mashg'ulotga aylanadi. Lekin, afsuski, xavfsizlik qoidalariga rioya qilmay, oddiy ehtiyotkorlikni unutib, o'z hayotini xavf ostiga qo'yayotganlar ham kam emas. Oqibatda shirin xotiralar bilan yakunlanishi kerak bo'lgan maroqli hordiq butun bir oila uchun fojiali kunga aylanishi mumkin. Buning bosh sababi esa ruxsat etilmagan suv havzalarida, jumladan, kanal, ariq, tabiiy ko'l va suv omborlarida cho'milish hamda xavfsizlik qoidalariga bee'tibor bo'lishidir.

Taqiqlangan joylarda cho'milish hayot uchun juda xavfli. Chunki bunday joylarda suv chuqurligi sizga noma'lum, ostida esa o'tkir toshlar, shisha siniqlari, temir-ter-sak yoki cho'kkan daraxt shoxlari bo'lishi mumkin. Suvga sho'ng'ish asnosida ular tanaga jiddiy zarar yetkazib, og'ir jarohatlarga yoki fojiaga olib keladi. Bundan tashqari, tepadan osoyishta ko'ringan suv havzasi ostida kuchli oqimlar va girdoblar bo'lishi, ular hatto eng tajribali suzuvchini ham oqizib yoki tubga tortib ketishi mumkin. Shuningdek, ba'zan suvning yuza qismi iliq tuyulsa-da, uning ostidagi sovuq buloq ko'zlari tanada to'satdan tomir tortishishini keltirib chiqaradi. Bunday holatda odam o'z harakatlarini boshqara olmay qoladi.

Ruxsat etilmagan suv havzalarida suzishning yana bir salbiy jihati shuki, favqulodda vaziyat yuz berganda sizga yordam beradigan qutqaruvchilar yoki tibbiyot xodimlari yoningizda bo'lmaydi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, suvda cho'kish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning qariyb 90 foizi aynan taqiqlangan va cho'milish uchun moslashtirilmagan joylarda sodir bo'ladi.



Yoz mavsumi ko'pchilik uchun dam olish, sog'liqni tiklash va unutilmas taassurotlar vaqti. Ushbu kunlar xonadoningizga qayg'u emas, quvonch olib kelsin. Chunki hayot insonga bir marta beriladigan bebaho ne'mat. Qisqa muddatlik salqinlash uchun uni xavf ostiga qo'ymang. Cho'milish salomatlik uchun foydali, lekin buning uchun faqat maxsus ruxsat etilgan va qutqaruvchilar nazorat qiladigan joylardan foydalaning.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

**MAVSUMNI BETALOFOT
O'TKAZISH UCHUN QUYIDAGI
ODDIY, LEKIN ZARUR
QOIDALARGA AMAL QILING:**

- Faqat ruxsat etilgan va xavfsizlik choralari ko'rilgan suv havzalarida cho'miling.
- Tanish bo'lmagan joylarda suvga sho'ng'imang.
- Bolalarni suv bo'yida hech qachon nazoratsiz qoldirmang.
- Oftob nuri nisbatan zararsiz bo'lgan vaqtda, ya'ni ertalab soat 10.00 dan 12.00 gacha va kechqurun soat 17.00 dan 19.00 gacha cho'milish maqsadga muvofiqdir.
- Spirtli ichimlik ta'sirida suvga yaqinlashmang.
- Teri kasalliklari, ochiq yaralar yoki yuqumli infeksiyalar kuzatilganda, suvga tushish tavsiya etilmaydi.
- Quyosh tig'ida uzoq turib, suvga keskin sakramang, chunki haroratning keskin o'zgarishi yurak xurujiga sabab bo'lishi mumkin.

Salomatlik

O'TKIR ICHAK KASALLIKLARIDAN EHTIYOT BO'LING!

Yoz faslida havo haroratining ko'tarilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari tez buziladi. Bu, o'z navbatida, o'tkir ichak kasalliklarining kelib chiqish xavfini oshiradi. Mazkur xastaliklar asosan sifatsiz oziq-ovqat, qaynatilmagan suv iste'mol qilish hamda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etmaslik oqibatida yuzaga keladi.

O'tkir ichak kasalliklari bakteriya, virus va parazitlar ta'sirida rivojlanadi. Ular orasida dizenteriya, salmonellyoz, esherixioz va rotavirus infeksiyalari eng ko'p tarqalganlaridir. Infeksiya organizmga og'iz orqali – iflos qo'llar, yuvilmagan meva-sabzavotlar va sifatsiz mahsulotlar vositasida kiradi.

Kasalliklarning asosiy belgilariga ich ketishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, qorin sohasidagi og'riqlar, tana haroratining ko'tarilishi va umumiy holsizlik kiradi. Ayniqsa, yosh bolalar va keksalarda o'tkir ichak xastaliklari og'ir kechadi.

Infeksiyaning oldini olish uchun quyidagi qoidalariga qat'iy amal qilish lozim:

– Taom tayyorlashdan va ovqatlanishdan oldin, shuningdek, hojatxonadan chiqqandan keyin qo'llarni sovunlab yaxshilab yuvish;

– Faqat qaynatilgan yoki kafolatlangan qadoqlangan ichimlik suvini ichish;

– Meva va sabzavotlarni iste'mol qilishdan avval yaxshilab yuvish;

– Go'sht, tuxum, sut va baliq mahsulotlarini yetarli darajada pishirgandan so'ng iste'mol qilish;

– Tayyor taomlarni tegishli haroratda (muzlatkichda) saqlash va yaroqlik muddati o'tgan mahsulotlarni aslo iste'mol qilmaslik;

– Ko'chadagi sanitariya talablariga javob bermaydigan joylardan oziq-ovqat sotib olmaslik;

– mahsulotlarni pashsha va chivinlardan himoya qilish, xonadon hamda atrof-muhit tozaligiga e'tibor berish.

O'zboshimchalik bilan davolanmasdan, kasallik alomatlari paydo bo'lishi bilan shifokorga murojaat qilish va tibbiyot xodimlarining tavsiyalariga rioya etish zarur.

Tozalik va sanitariya-gigiyena qoidalariga muntazam amal qilish orqali o'tkir ichak kasalliklarining oldini olish mumkin. O'zingiz va yaqinlaringiz salomatligini xavfdan asrang!

Islambek ORAZBAYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
IIV Tibbiyot bo'limi Sanitariya-
epidemiologiya nazorati markazi
katta epidemiolog shifokori,
leytenant.

QANDAY YUQADI?



KASALLIK BELGILARI



OLDINI OLISH CHORALARI



Muhim!

Agar kasallik belgilari kuzatilsa, darhol shifokorga murojaat qiling!



(Oxiri. Boshlanishi o'tgan sonlarda.)

Ertasiga kimyo imtihonidan «uch» oldim. Chiqsam, maktab darvozasi oldida yaproqlarini chang bosgan olcha tagida Dilafró'z iljayib turibdi. Ko'zimga shu qadar xunuk ko'rinib ketdiki, yuzimni teskari o'girdim. Shitob bilan o'tib ketayotgan edim, chaqirdi:

– Ergash...
– Nima! – dedim baqirib.
– Abjal kamlik qilib qoldimi? Birpas sabr qilsang chiqadi!
– Shunday dedim-u, yugurib ketdim.

Keyin... hammasi tamom bo'ldi. Maktab ham. Muhabbat ham... Toshkentdek shahri azimda institutga kirishga ko'zim yetmasdi. Omadim chopdimi, yaxshi tayyorgarlik ko'rdimmi, harqalay Temiryo'l transporti injenerlari institutiga kirdim. Ora-chora Nizomdan xat kelib turardi. Ikki marta Dilafró'z seni so'radi, adresingni beraymi, degan mazmunda ham yozdi. Ko'nglimda quvonchga o'xshash bir nima yilt etgandek bo'ldi-yu, o'sha zahoti so'ndi. Uning Abjal bilan yetaklashib ketayotgani, men bo'lsam ahmoqona bir alpozda temiryo'l chetida angrayib o'tirganim ko'z o'ngimga kelib, «aravasini tortsin» degan mazmunda javob yozib yubordim. Shunda ham har gal uni eslasam, yuragimning bir cheti jiz etib qo'yardi... Bora-bora jizillamaydigan bo'ldi... To'rtinchi kursni bitirgan yilim uylandim. Shunda ham qachondir ko'ngil qo'ygan kishingni unutish og'ir bo'larkan, uning qismatiga befarq qaray olmas ekansan. Dilafró'z Andijon Tibbiyot institutida o'qiyotganidan xabarim bor edi. O'sha yili u ham turmushga chiqqanini eshitdim. Yo'q, yuragimda rashk yoki iztirob emas, o'kinchga o'xshashroq bir

narsa uyg'ondi. Uyg'ondiyu, so'ndi. Faqat bir narsaga hayron qoldim. Dilafró'z Abjalga emas, boshqa yigitga turmushga chiqibdi...

Keyin bular ham unutildi. Faqat onda-sonda tushlarimga oppoq ko'ylak kiygan Dilafró'z kiradigan bo'ldi.

O'n sakkiz yil oz muddat emas. Dilafró'z chindan ham o'zgargan, ammo o'ktam kulgisi, quralay ko'zlarining kiborona boqi-

Harchand o'zimni tutishga urinsam ham bunday palлада aytish mumkin bo'lmagan eng ahmoqona gap og'zimdan chiqib ketdi:

– Abjalni hech ko'rasizmi? U yarq etib qaradi.

– Kimni-i-i? – dedi cho'zib.

Kuldim.

– Abjalni-da! Esingizdan chiqdimi?

Dilafró'z ko'zimga uzoq,

siyasini yoqlaganingizni, Guli bilan to'yingiz o'n to'rtinchi iyun, shanba kuni bo'lgani. To'ng'ich o'g'lingiz may oyida tug'ilganini... Xotiningiz hamshira bo'lib ishlashini... Aytaveraymi? – U kuldi. Ammo bu safar kulgisida o'ktamlik yo'q edi. Buni o'zi ham sezdi shekilli, yuzini o'g'irib, boshini quyi soldi...

Vujudim birdan bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Samo-

O'tkir HOSHIMOV

O'Q BULUT, PPOQ BULUT

Hikoya



shi o'sha-o'sha edi.

– Men sizni tushimda ko'rib turaman, – deb takrorladim uning ko'ziga tikilib.

– Yo'g'e! – Dilafró'z ko'zlaridan o't chaqnaib kuldi. – Nahotki?

– Bu gapni sizga yoqish uchun aytayotganim yo'q. Bor gap shu.

– Qarang-a, men shuncha harakat qilsam ham siz sira tushimga kirmaysiz.

Bu gapni u yarim hazil bilan aytdi. Biroq mening ko'z o'ngimda yana o'sha sovuq manzara jonlandi. Uning Abjal bilan yetaklashib ketgani-yu, men ayanchli qiyofada termilib qolganim.

sinovchan tikilib turdi-da negadir istehzoli kuldi.

– Boshimga uramanmi uni?! – dedi qoshini chimirib. Esankirab qoldim.

– Axir o'shanda...

Dilafró'zning ko'zlariga sezilar-sezilmas iztirob sharpsi soya solib o'tgandek bo'ldi. Biroq zum o'tmay kulimsirab so'radi:

– Doktorlik ishingiz bitib qoldimi?

– Siz... siz qayoqdan bilasiz? – dedim battar hayratlanib.

– Men shunaqa bilag'onman! – Uning gap ohangida yashirin istehzo bor edi. – Hammasini bilaman! Qachon nomzodlik dissertat-

lyot hamon guvillab uchib borar, nazarimda mening qalbimda ham allanima guvillab junbishga kelgan edi...

Nimaga u sening hayotini miridan-sirigacha biladi? Ilmiy ishingniyam, qachon uylanganingniyam... Nimaga? Nega u Abjalning nomini eshitganda ijirg'andi? Demak, Abjaldan nafratlanar ekan-da?! Xo'sh, o'shanda ko'prik ustida o'zingni ayanchli qiyofada qolib ketganingni o'ylaysan-u, nega Dilafró'zni o'ylamaysan? O'shanda Dilafró'z uchun, maktabning eng go'zal, eng mag'rur qizi uchun o'zi yomon

ko'rgan, o'zi jirkanadigan odam bilan qo'l ushlashib ketish oson bo'lmagandir? Kim uchun qildi bu ishni? Shoshma... O'shanda rels ustida amallab muvozanat saqlab ketayotganida nima uchun orqasiga qayta-qayta termilib qaradi? Balki o'shanda uning ko'zlarida ingragan iztirobini payqamay qolgandirsan? Balki ertasiga maktab darvozasi oldida seni kutib turganida hammasini tushuntirmoqchi bo'lgandir? Sen bo'lsang, uni haqorat qilib jo'nab qolgansan. U shundayam seni kechirgan. Bo'lmasa, nima uchun Nizomdan qayta-qayta surishtirdi seni? Nimaga sen bilan uchrashishni tiladi? Nimaga? Nimaga xotiningdan tortib bolangning tug'ilgan kunigacha biladi? Nimaga? Nimaga?

Bir-biridan achchiq, bir-biridan armonli savollar ketma-ket yopirilib kellar, samolyot motorining guvillashi, miyamda charx urayotgan savollar hammasi aralash-quralash bo'lib vujudimni larzaga solar, Dilafró'z bo'lsa hamon nariyoqqa qarab o'tirar edi. Men uning yuzidagi ifodani aniq ko'rmasdim. Ammo ko'rmasam ham o'zimning bepisandligim tufayli, o'zimning befahmligim tufayli shuncha paytdan buyon payqamay kelgan tuyg'ularni endi aniq sezib turardim. Faqat... faqat endi kech bo'lgandi. Ajab, sendek «olim», sendek «zuko» erkakning bir ayol qalbini tushunishi uchun o'n yil kerak bo'libdi! O'shandayam tasodifan, to'satdan... Demak, shuncha yillardan beri bejiz tushlaringga kirmagan ekan-da?!

Sen bo'lsa...Sen galvars bo'lsa...

Dilafró'z hamon boshini quyi solib, nariyoqqa qarab o'tirar, nazarimda u yana o'sha oq, oppoq bulutlar orasida uchib yuradigan malakka aylanib qolgandi...



E'LON
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Markaziy gospitali shifokorlarni ISHGA TAKLIF QILADI:

Nevrolog
Anesteziolog-reanimatolog
Patologoanatom

Mehnat sharoitlari: 5 kunlik ish haftasi, yuklama haftasiga 36 soatdan oshmaydi.

Manzil: Toshkent sh., Olmazor tumani, Chimboy ko'chasi, 2-uy.

Murojaat uchun telefon: (71) 231-41-88



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

30-iyul — Xalqlar do'stligi kuni

DILLARNI DILLARGA BOG'LOVCHI RISHTA

Do'stlik — dillarni dillarga, yurtlarni yurtlarga bog'lovchi rishta. Elatlarni birdamlikka, millatlarni totuvlikka chorlovchi qudrat. Chin do'stlik millat tanlamaydi, sarhad bilmaydi.

O'zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bosh qomusimiz va qonunlarimizda mamlakatimizning barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'i nazar, teng huquq hamda erkinliklarga ega ekanligi kafolatlangan. Yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'z madaniyati, urf-odati va an'analarini asrashi hamda rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda 30-iyul — Xalqlar do'stligi kuni sifatida keng nishonlab kelinmoqda. Ushbu sana munosabati bilan joriy yilning 23–31 iyul kunlari respublikamiz bo'ylab an'anaviy «Do'stlik festivali» bo'lib o'tadi.

Festival doirasida Toshkent shahri va respublikaning barcha hududlaridagi so'lim xiyobonlar, madaniyat maskanlari va tomosha maydonlarida turli ma'naviy-ma'rifiy hamda ilmiy-amaliy bayram tadbirlari tashkil etiladi.



Minglab tomoshabinlar va mehmonlar ishtirok etadigan ommaviy tadbirlarda xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash kuch tuzilmalari xodimlari zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bayram sayillari o'tadigan hududlarda osoyishtalik va xavfsizlik talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimlari va tibbiyot xodimlari tun-u kun faol xizmat olib boradilar.

G'ayratulla SHUKUROV



Musiqiy tanaffus

SARATON

Saratonda soyaboning bo'layin,
Toqqa oshsang, ko'k dovoning bo'layin.
Ketma, jonim, ayroliqdan jon bezor,
Yarim kecha kakhkashoning bo'layin.

MIRTEMIR,
O'zbekiston xalq shoiri



O'zbekiston xalq artisti Mahmud Nomozov ijrosida



Donolar so'zlaydi, biz yodga solamiz

Ikkisi
bir bo'lmaganning
biri
ikki
bo'lmaydi



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Shuhrat RO'ZIYEV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilizimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 2145.
Bosilish — ofset usulida.
Bichimi — A3.
Hajmi — 6 bosma taboq.
48617 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda — 180.
Tashkilotlar uchun — 366.
Bosishga topshirish vaqti — 22.00.
Bosishga topshirildi — 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.